

O. HASANBOYEVA, A. NE'MATOVA,  
G. IBRAGIMOVA

# ODOBNOMA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
4-sinfi uchun darslik

**5-nashri**

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent—2006

74.200.54 974

Umumiy ta'lim maktabi

Odobnoma

H48

Hasanboyeva O. va boshq.

**Odobnoma:** 4-sinf uchun darslik/O. Hasanboyeva, A. Ne'matova, G. Ibragimova/Mas'ul muharrir: A. Xolbekov.— T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.—96 b.

I.1, 2 Muallifdosh.

BBK 74.200.54ya71

Mas'ul muharrir:

falsafa fanlari doktori **Abdug'ani Xolbekov**

Taqrizchilar: *pedagogika fanlari doktori, professor M. Haydarov;*

*RTM ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi boshlig'i F. Xolmirzayeva;*

*Toshkent shahar 134-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Z. Komilova.*

Shartli belgilar:



— savollar;




— topshiriqlar;



— dars tugadi.

H 430300000 06  
358-2006



32164  
391

ISBN 5-89890-108-6

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti, 2006

## KIRISH

Aziz o'quvchi!

Siz uch yil mobaynida «Odobnoma» darsligidan odob-axloq me'yorlarini, o'zbek xalqining boy ma'naviy va madaniy merosini o'rgandingiz. Mustaqillik tufayli qayta tiklangan va xalqimizga qaytarilgan urf-odatlar haqida bilib oldingiz. Qo'lingizdagi mazkur darslik yordamida quyi sinflarda egallagan odob haqidagi bilimlaringizni yanada mustahkamlaysiz.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari darslikdan keng o'rin olgan. Adolat qomusi — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqidagi bilimlar hamda asosiy qonunlarimiz haqidagi ma'lumotlarni bilish orqali Siz o'z haq-huquqlaringizdan xabardor bo'lasiz.

Odob saboqlari — hayot saboqlari, deb bejiz aytilmaydi. Bu saboqlar Sizni hayotni qadrlashga o'rgatadi. Hayot qadriga yetgan kishi esa el-yurt, mahalla-ko'y, ona Vatan, erk qadriga yetadi.

# HAYOT BULOG'I

## ONALIK MEHRI

**Bu yorug' olamda Vatan bittadir,  
Bittadir dunyoda Ona degan nom.**

*Abdulla Oripov*

Ona — bu hayot demak. Ona borki, hayot davom etadi, ona borki, oila chirog'i o'chmaydi, ona borki, olam bor. Onalarimiz bizni bir parcha etdan katta qilib, qatorga qo'shadi, oq yuvib, oq taraydilar, doimo boshimiz uzra parvona bo'ladilar. Oyog'imizga kirgan tikanni kipriklari bilan olishga tayyordirlar. Buning sababi nimada, ne uchun onalar farzand qoshida bu qadar parvona bo'ladilar? Hatto kerak bo'lsa,



farzandi uchun jonini fido qilishga ham tayyor ekanliklarining boisi nimada? Buning javobi bitta — **bu onalik mehri-dir**. Shunday, onaning o'z farzandiga bo'lgan cheksiz mehri bu!

- *Sendan yuksak nima bor, yulduz?*
- *Onalar mehri.*
- *Sendan keskir nima bor, olmos?*
- *Onalar qahri.*
- *Qaydan olding otashni, quyosh?*
- *Ona qalbidan.*
- *Po'lat, qaydan senda zo'r bardosh?*
- *Ona sabridan.*

- *Senmi, ko'klam, hayotbaxsh fasl?*
- *Yo'q, ona izi.*
- *Senmi, totli, shifobaxsh asal?*
- *Yo'q, ona so'zi.*
- *Dengiz, nedir kenglikda tanho?*
- *Ona og'ushi.*
- *Sendan shaffof ne, tonggi ziyo?*
- *Ona boqishi.*
- *Yaratguvchi senmi, tabiat?*
- *Yo'q, yo'q, onalar.*
- *Baxt bitguvchi senmisan, hayot?*
- *Yo'q, yo'q, onalar!*

***Samandar Vohidov*** (“Onadir, ona!”)

Yuqorida shoir tilga olgan xislatlarning barchasi faqat onalarimizgagina xosdir.

Onalarning jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni ham salmoqlidir. Ular o'z mehnatlari, iqtidorlari bilan yurtimiz ravnaqiga katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Onalarimizning birlari ishchi bo'lsa, birlari shifokor, birlari o'qituvchi bo'lsa, birlari to'quvchi, birlari shoira bo'lsa, birlari olim, birlari rahbar bo'lsa, birlari tadbirkordir. Uyda esa ajoyib bekadirlar.

Onalarning farzandda haqlari juda ko'pdir. Garchi onangni boshingda ko'tarib, hajga olib borib kelsang ham, uning bir kechalik uyqusini buzib senga aytgan allasining haqini uzolmaysan, deydi xalqimiz.

Onalarga farzanddan ko'p narsa kerak emas. Farzandi sog'-omon, tinch, baxtli-saodatli bo'lsa, ular uchun shuning o'zi kifoya. Farzandi kamolini ko'rish ona uchun katta baxtdir.

## O'ZBEGIMNING ONASI

*Dilbar Haydarova*

*Oilaga qut bergan,  
Bolaga oq sut bergan,  
Baxt bersa ham but bergan,  
Pokizalik qoyasi,  
O'zbekimning onasi.*

*To'marislar zotidan,  
Barchinlar sabotidan,  
Zulfiya bayotidan,  
Ozodlikdir g'oyasi,  
O'zbekimning onasi.*

*Tinchlik yo'lin tanlagan,  
Belin mahkam bog'lagan,  
O'zligini anglagan,  
Ulug' xalqning doyasi,  
O'zbekimning onasi.*

## KULCHA NON

*To'lqin Qozoqboyev*

Abdulla aka keksa onasining qulog'iga engashib dedi:

— Oyijon, A'zamjon bilan Mahmudjon ukalarim ertaga biznikiga kelishmoqchi.

— Tinchlikmi, bolam, oldindan aytyapsan, eshigimiz ochiq, kelaverishsin, yo boshqa gap bormi, kulyapsan?!

— Axir ertaga tavallud kunim — yetmish yoshga to'laman, oyijon.

— Voy, aylanay sendan, yetmishga chiqib qoldingmi-a, oying o'rgilsin, — ona uni quchib, peshonasidan o'pdi. — Unda ertaga subhidamda turib, senga o'zim kulcha non yopib beraman, bolajonginam, ukalaring bilan mazza qilib yeysizlar.



1. Onalar mehri haqida nima deya olasiz?
2. Onalarimizning jamiyatimizda tutgan o'rinlari haqida so'zlab bering.
3. She'rni o'qing, “Oilaga qut bergan” misrasining mazmunini misollar bilan tushuntiring.
4. Hikoyani o'qing va undan qanday xulosa chiqarganingizni aytib bering.
5. “Ona — mehr bulog'i” mavzusida kichik hikoya yozing.



## OTA JASORATI

Jasorat nima?

Mardonavor ish, harakat, mardlik, botirlik, dovyuraklikka **jasorat** deyiladi. Mana shunday xislatlarga ega kishilar xalqimiz orasida juda ko'p. Vatanimiz, xalqimiz tinchligi, osoyishtaligi yo'lida jon fido etgan ajdodlarimizni, milliy ozodlik yo'lida kurashgan bobolarimizni eslaylik. Ularning jasorati xalqimiz xotirasidan bir umr o'chmaydi, xalqimiz ular nomlarini doimo g'urur va iftixor bilan eslaydilar.

Jasoratning katta-kichigi bo'lmaydi. Eng muhimi unga jur'at eta olishdadir. Jur'at esa



kishining vijdoniga, qanday tarbiya topganiga bog'liqdir. **El-yurtning koriga yarash — jasorat, yordamga muhtoj odamga madad qo'lini cho'zish — jasorat, do'st mushkulini oson qilish — jasorat.**

Biz jasoratli el avlodlarimiz. Bugungi hur zamonamizda “Elim deb, yurtim deb yonib yashayotgan” el farzandlarimiz. Yonib yashashning o'zi ham jasoratdir.

O'zbek xalqida qadim-qadimdan oila boshlig'i ota hisoblanadi. Ota — oila suyanchig'i, ota — oilaning ishongan tog'i, ota — oilaning posboni. U o'z oilasi uchun qalqon, po'lat qo'rg'ondir. Otalar Vatan, farzandi uchun har qanday jasoratga tayyordirlar.

Shoh va shoir bobokalonimiz Bobur Mirzoning o'z farzandiga bo'lgan mehri o'g'li Humoyunga kelgan kasallikni o'ziga chaqirishida yaqqol namoyon bo'lgandir. Buni ota jasoratining eng go'zal ko'rinishi, desak yanglishmaymiz:

...Men Humoyunga jahondagi barcha olmoslardan ham azizroq bir narsamni qurbon qilmoqchimen. Faqat bu qurbonni siz-u bizga o'xshagan bandalar emas, zarur bo'lsa, parvardigorning o'zi olsin!

Bobur o'ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o'tib, Humoyunning to'shagi yoniga keldi.

— Humoyun, jigarbandim!— dedi u hamma eshitadigan tovush bilan.— Sening betoqatlig'ingga men toqat keltiray. Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin!

Behush yotgan Humoyun bu gaplarni eshitmas, lekin bemorning xobgohidagi ayollar, mulozimlar, tabiblar, ruhoniylar — hammasi Boburga quloqlarini ding qilib qarab turardilar.

Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch marta aylandi-yu:



— E, parvardigor!— deb iltijo qildi.— Menki Boburmen, agar jon berish mumkin bo‘lsa, umru jonimni Humoyunga qurbon qildim! Azroil mening jonimni olsin-u, xudo Humoyunga shifo bersin!

Mohim begim yig‘idan to‘xtab, Boburga qo‘rquv aralash hayrat bilan tikilib turardi...

Bobur boshini quyi solib xobgohdan sekin chiqib ketdi...

... Yigirma uch yoshli Humoyunning yigit yuragi kasallikni axiyri yengdi. Oradan bir hafta o‘tgach, u kasal ko‘rishga kelganlarni o‘rnidan turib qabul qildi. Yana ikki kundan so‘ng otasini borib ko‘rish uchun o‘zi uydan chiqdi...

*Pirimqul Qodirov*

(“Yulduzli tunlar” romanidan)

Ana, otalar mehri nimalarga qodir! Shirin jonini farzandi uchun fido qilish jasorat emasmi?

Biz farzandlar ham otalarimiz mehriga mehr bilan javob berishimiz, ularga tayanch bo‘lishimiz, bosgan izlaridan borishimiz, otalarimiz ishlarini davom ettirishimiz lozim. Xalqimizda: “Ota rozi — xudo rozi”, degan maqol bor. Yaxshi farzand, albatta, otasining duosini oladi.



1. Jasorat nima?
2. Otalar jasorati deganda nimani tushundingiz?
3. P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidan keltirilgan parcha sizga qanday ta’sir etdi?
4. Bobur Mirzoning o‘g‘li Humoyunga kelgan kasallikka o‘zini fido qilishida qanday xislat ko‘rdingiz?
5. Otalar jasoratidan faxrlanish tuyg‘usini qanday tushunasiz?
6. “Ota bilan suhbat” mavzusida kichik hikoya yozing.



## FARZAND ISTIQBOLI

Istiqbol bu kelgusi hayot, kelajak demakdir. Xalqimizda: “Istiqboling porloq, toleying yor bo‘lsin”, degan naql bor. Bu naql ko‘proq farzandlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ya‘ni xalqimiz yoshlarga ezgulik tilab, kelajaging baxt-saodatli bo‘lsin, ana shu baxt, omad doimo senga hamroh bo‘lsin, deya niyat qiladilar. Albatta, har bir ota-ona o‘z farzandiga baxtli kelajak tilaydi. Farzandi kamolini ko‘rishni istaydi. Mana shu orzu bizning hur mamlakatimizda davlat miqyosiga ko‘tarilgandir. Hukumatimiz yoshlar istiqboli uchun juda katta ishlarni amalga oshirmoqda.

**“Kelajakda O‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma‘naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim”,**— deydi hurmatli Prezidentimiz Islom Karimov.

Yurtimizda farzandlar kamoli uchun hamma narsa muhayyo. Ko‘plab maktablar zamon talablariga moslab ta‘mirlanib, yana ko‘plari qurildi, qurilmoqda, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari bunyod etilib, yoshlarni o‘z bag‘riga olmoqda. Bilimdon farzandlarimiz chet ellarda tahsil olishyapti.

Farzandlarimiz-chi? Ular el-yurt ishonchini qay darajada oqlamoqdalar? Bu savolga javobni xalqaro olimpiadalarda ishtirok etgan va g‘olib chiqqan bir guruh o‘zbekistonlik o‘quvchilarning Prezidentimizga yozgan maktubidan topsak bo‘ladi:

“Ilk qaldirg‘och sifatida respublikamiz maktablarining 33 nafar tengdosh o‘quvchilari birgalikda Argentina, Gollandiya, Gruziya, Polsha, Chexiya, Turkiya davlatlarida matematika, fizika, biologiya, kimyo va ekologiya bo‘yicha o‘tkazilgan bir qator olimpiadalarda ishtirok etib, 10 ta oltin, 4 ta kumush,

17 ta bronza medallarini va 3 ta yuqori darajali diplomlarini qo'lga kiritdik".

Mana buni yoshlarimizning hukumatimiz tomonidan ularga bildirilayotgan ishonch va e'tiboriga munosib javoblari desa bo'ladi.

Bunday muvaffaqiyatlarga erishayotgan yoshlarimiz juda ko'p. Ulardan biri shaxmat bo'yicha jahon chempioni bo'lgan yurtdoshimiz Rustam Qosimjonov bo'lsa, yana biri O'zbekiston Badiiy akademiyasi Andijon viloyat litseyi o'quvchisi Dilfuza Matboboyevadir. Dilfuzaning "Mahallada to'y" asari Xirosimada o'tkazilgan Xalqaro bolalar asarlari tanlovida AQSH, Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Fransiya, Avstraliya kabi davlatlar hamda Yaponiyadan yuborilgan 6 mingdan ziyod rasmlar orasida birinchi sovrin



va Xirosima shahri meri Tadotosi Akibaning faxriy diplomi bilan taqdirlandi.

Yoki Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdir lanayotganlarning ko'pchiligi maktab o'quvchilari ekanligi ham yurtimiz iste'dodli yoshlarga boy ekanligidan dalolat beradi.

Mana shularning barchasi buyuk istiqlol bergan imkoniyatlar tufaylidir. Bas, shunday ekan, yurtimizning har bir farzandi istiqlolimizning qadriga yetishi, uni asrashi, u bergan imko niyatlardan to'la foydalanishi hamda xalqimizning munosib farzandlari bo'lib yetishishlari lozim. El-yurt istagi, Vatan istagi shu. Bu istakka "Labbay" deb javob berish siz yoshlarning burchingizdir.



1. Istiqbol haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
2. Farzand istiqboli nima? Uni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.
3. Yurtboshimiz yoshlarga qanday tilaklar bildiribdi?
4. O'zbekiston farzandlari qanday yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar?
5. Nima deb o'ylaysiz, yoshlarimizning bunday yutuqlarga erishishlarining sababi nimada ekan?
6. Siz o'z imkoniyatlaringizdan qanday foydalanyapsiz?
7. Siz yashayotgan joyda ana shunday shuhrat qozonayotgan yoshlar bormi? Bor bo'lsa, ular haqida ma'lumotlar to'plang va "Mening g'ayratli tengdoshim" mavzusida hikoya yozing.



# INSON QADRI

## UMR MAZMUNI

Inson ezgu ishlar uchun tug‘iladi! Berilgan umrni foydali ishlarga: ilm olish, mehnat qilish, hunar o‘rganish, ota-ona, qarindosh va insonlarga mehri bo‘lish, har kun va har soniyada ezgulikka intilishga bag‘ishlash kerak. Odobli bolalar o‘z vaqtini ana shunday ezgu ishlarga sarflashadi.

Rivoyat qilishlaricha, Luqmoni Hakim ikki do‘stni o‘rtaga olib so‘radilar:

— Xo‘sh, siz umringiz mazmunini nimalar bilan boyitdingiz?

— Men yaxshi farzand o‘stirdim, yetim va nochorlarga yordam berdim, tinimsiz mehnat qildim.

Luqmoni Hakim uning sherigiga yuzlandilar:

— Bolam, siz umringizda qanday savob ishlarni qildingiz?

U odam yerga qarab:

— Mayxona, choyxonalarda umrimni bekor o‘tkazganman,— deb javob berdi.

Luqmoni Hakim boshini chayqab:

— Essiz umr!— dedilar.

Darhaqiqat, umr mazmuni bu foydali ishga sarflangan vaqt, solih farzand, ixtiro, yaxshi nom, kitob, imorat, jasoratdir.

Inson gohida o‘ziga shunday savol berib turishi zarur: “Men Vatanimga, avlodlarimga nimalar qoldiryapman?”

## SHAHIDLAR XOTIRASI UNUTILMAYDI

Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan barhayot siymolarga ehtirom ramzi sifatida poytaxtimizda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui bunyod qilindi, 31-avgust — “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” etib belgilandi.



Abdurauf  
Fitrat



Abdulhamid  
Cho'lpon



Abdulla  
Qodiriy

Bu yerda xalqimizning asl farzandlari bo'lgan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon kabi yuzlab ulug' zotlarning ruhi poklari yod etiladigan bo'ldi. Qadr-qimmatini toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elat vakillari bor edi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlariday: **“Aslida biz qo'lga kiritgan mustaqilligimiz mohiyati, o'zligimizni anglab, o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib millatimizning qadr-qimmatini, uning sha'ni va g'ururini tiklab, asriy adolatni qaror toptirish va xalqimizning obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish, demakdir.**

**Biz bugun shu tabarruk ziyoratgohda turib, ozod va erkin Vatan uchun jon bergan shahidlar ruhi oldida bosh egib, ularga o'z hurmat ehtiromimizni bajo keltiramiz.**

**Vatanimiz o'g'il va qizlari bu tabarruk insonlar qoldirgan merosni o'rganadilar va ularning nomini qalblarida doimo saqlaydilar”.**





1. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui kimning tashabbusi bilan qurildi?



2. Prezident Islom Karimov “Shahidlar xotirasi” yodgorligi majmui haqida nima deydilar?

3. Bu yodgorlik poyida kimlar yod etiladi?

4. Abdulhamid Cho‘lpon she‘rlaridan topib, yod oling.

## VAQTING KETDI — NAQDING KETDI

Eng qimmatli boyluk vaqtdir. Fursatdan yaxshi foydalanangiz oltinlar topiladi, vaqtni bekor o‘tkazish oltinlarni qo‘ldan boy berishdir. Aqlli kishilarning vaqti oqilona taqsimlanadi. Ota-bobolarimiz: “Vaqtning o‘g‘li bo‘l”, “Vaqtni saqla, fursatni qochirma”, deganlar. Vaqtdan unumli foydalanib, baxt topish mumkin. Behuda o‘tgan vaqtni esa qaytarib bo‘lmaydi.

Aqlli bolalar vaqtlarini bekor o‘tkazmaydilar. G‘ayrat bilan o‘qiydilar, ishlaydilar, oltinga teng vaqtlarini qadrlaydilar, kunining har lahzasi ular uchun hisobli. Donishmandlarni ulug‘likka eltgan narsa ham vaqtdan unumli foydalanish bo‘lgan. Insonni baxtli qiluvchi va umrini bezatgan ham vaqtdir.

*Vaqtning ketdi — baxting ketdi,  
Ma‘no ko‘pdir bu hikmatda.  
Vaqtning qadrlaganlar  
Doim yurar izzatda.*

### *Maqollar*

*Vaqtning bor — naqding bor.*

\* \* \*

*Vaqt ketiga qaytmas.*

\* \* \*

*Vaqt — g‘animat.*

\* \* \*

*Yo‘qolgan oltin topilar, yo‘qolgan vaqt topilmas.*

\* \* \*

*Vaqt tog‘ni yemirar,*

*Suv toshni kemirar.*

\* \* \*

*Vaqt — omad*

\* \* \*

*Vaqt o‘tgandan keyin  
qilichingni toshga chop.*

\* \* \*

*Vaqt aqchadir,  
G‘ofil bo‘lsang qochadir.*



1. “Vaqt” deganda nimani tushunasiz?
2. Siz vaqtdan unumli foydalanasizmi?
3. Zoye ketgan vaqtingizga achingan paytlaringiz bo‘lganmi?
4. “Vaqtning orqaga qaytarib bo‘lmaydi”, degan gapni qanday tushunasiz?
5. Behuda o‘tgan onlaringizni eslang, so‘zlab bering, xulosa chiqaring.
6. Maqollarning mazmuniga e‘tibor bering.



## SO‘ZLASHUV ODOBI

### TILGA IXTIYORSIZ — ELGA E‘TIBORSIZ

Deyarli hamma hayvonlar, parrandalar va hasharotlarning ham tili bor. Til — issiq-sovuqni, ta‘m-mazani biluvchi, ov-qatlanishda ishtirok etuvchi a‘zo. Insonda esa bulardan tashqari nutq tovushlarini hosil qiladi, ya‘ni so‘zlash qobiliyati til orqali amalga oshadi.

Yer yuzida qancha millat, xalq, elat, qabila bo‘lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo‘q. Xalqsiz esa til ham bo‘lmaydi (“Vatan tuyg‘usi”, 16-bet).

Til — insonlar o‘rtasidagi aloqa, fikr ifodasi, insonlarning bir-biri bilan fikr almashishiga xizmat qiladi.

Yer yuzidagi barcha xalqning o‘z tili bor. Hozirgi davrda dunyodagi turli millat, elat va qabilalarga tegishli 2500 dan 5000 tagacha (ba‘zi manbalarda 3000 dan 7000 tagacha) til borligi ma‘lum.

Bobokalon shoirimiz Alisher Navoiy so‘zning yumshoq, go‘zal, nafisligi va inson ruhiyatiga ta‘sirini shunday tasvirlagan edi: *Til va ko‘ngil xo‘broq a‘zodir insonda... Til nutqning asosidir, agar nutq nopisand (noo‘rin) zohir bo‘lsa, tilning ofatidir...*

Hazrati Navoiy tilning mazmuni, ifodasiga alohida e‘tibor berganlar. Har bir til o‘z millati uchun aziz. O‘zbek tili o‘zbek xalqi ruhiyatini, g‘ururini, kimligini anglatish imkonini beruvchi qadimiy, boy tildir.

O‘zbekistonda davlat tili — o‘zbek tili. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga — davlat tili maqomi berilgan. Shu kunni chek-

siz quvonch va iftixor bilan bayram qilishga haqlimiz. 1995-yil 21-dekabrda Respublikamizning Oliy Kengashi tomonidan yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilindi. O‘zbek tili muqaddas bo‘lib, xalq uchun azizdir. Har bir tilning chiroyi, jozibasini, mazmuni, boyligi bo‘lgani kabi o‘zbek tili ham nozik va mazmunli iboralarga boydir.

Til odobi nima?

Har bir inson bir-biri bilan yakka holda yoki jamoat joylarida muloqot va muomalada bo‘lganda quyidagilarga e‘tibor berishi lozim:

O‘ylab, aql bilan so‘zlash, bema‘no so‘zni aytmaslik, ochiq chehra va xushmuomalalik bilan muloyim so‘zlash. Aftini burushtirmaslik, hazil va kesatishlardan o‘zini tiyish. Suhbatdoshlar so‘ziga aralashmaslik, sergaplik bilan ezmalik qilish, baqirib gapirish, so‘kinmaslik kerak.

Ona tilimizning ko‘rki, kuch-qudratini jahonga ko‘z-ko‘z qilgan bobolarimiz — Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Mahmud Koshg‘ariy “O‘z tilini bilgan xalq kuchlidir” naqliga amal qilganlar. Siz ham tilga e‘tibor bering.

## ONA TILIM

*Sa‘dulla Hakim*

*Do‘stga do‘st-u dugona tilim,  
Begonaga begona tilim.  
Beshigimda yagona tilim,  
Ona tilim.*

*“... lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”,—  
O‘zbekimni o‘stirgan ilik,  
Odamiyga odamgarchilik,  
Ona tilim.*

*Qizlariday iffatli tilim,  
Qardoshiga izzatli tilim.  
Tilim, tilim va yana tilim,  
Ona tilim.*

*Ulus tilim, elat, xalq tilim,  
Ulug' tilim, abad haq tilim,  
Navoiyga zor, ilhaq tilim,  
Ona tilim.*

*Ota bo'lib otlangan tilim,  
Ona bo'lib shodlangan tilim,  
Bola bo'lib yodlangan tilim,  
Ona tilim.*

*Boshimda bosh bor ekan — borsan,  
Ko'zimda yosh bor ekan — borsan,  
Toki quyosh bor ekan — borsan,  
Ona tilim!*

### ***Hikmatlar***

*Bilimli kishi nimalarni so'zlaydi, sen unga quloq sol, adahlar boshi tildir, uni tiymoq zarur.*

*Tilingni tiy, tishing sinmasin, agar (noo'rin so'zlab yubor-sang) tiling chiqib qolsa, tishingni sindiradi.*

*O'ylab so'zlagan kishining so'zi to'g'ridir, o'rinsiz ko'p vaysagan til shafqatsiz yovdir.*

*So'zing, achchiq tilingni tiyib tur, erk berilgan til bir kun boshingga yetadi.*

**Ahmad Yugnakiy**

\* \* \*

*Til odobida e'tiborsiz, o'ylamay so'zlaydigan insonlar jim turgani ma'qul,— deydi Luqmoni Hakim.*

*“Jim turishda shunday ulug‘ ma‘no borki, uni maqtashga til ojizlik qiladi: insonning ulug‘ligi-obro‘sini, nojo‘ya birovdan uzr so‘rashdan, har qanday balo-qazodan jimlik asraydi”.*

\* \* \*

*Xalqimizda shunday naqlar bor:*

*“Har bir ishni bajarishda uning tilini bilgin” yoki “Tilni bog‘la dil bilan, dilni bog‘la til bilan”.*



1. Til nima?

2. Til odobi haqida nima bildingiz?

3. O‘zbekiston Respublikasida “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?



4. Ona tilimiz haqida bobokalonlarimiz nima deganlar?

5. Hikmatlarni yod oling va ularga amal qiling.

## YAXSHILIK HAM, YOMONLIK HAM O‘ZINGDAN

**Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon,  
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.  
Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar,  
So‘z yomon bo‘lsa, pichoq qindan chiqar.**

*Abdulla Avloniy*

Yaxshilik eng yuksak fazilat. Yaxshilik insonlarning bir-biriga mehr ko‘rsatishi, o‘zaro yordam, g‘amxo‘rligi va shirin so‘zligida namoyon bo‘ladi.

Hadisi sharifda: “Yaxshilikning evazi yaxshilik bo‘lishi kerak”, deb bejiz yozilmagan.

Yoki payg‘ambarimiz aytadilar:

Suhbatdoshlarning eng yaxshisi xushfe‘l va ko‘ngilga ma‘quli qo‘shnilardir...

Xo‘sh, yaxshilik qachon va nimalarda ko‘rinadi?

Ota-ona, qarindoshlar, o‘rtoq-do‘stlarga ko‘rsatadigan mehr-oqibatda, shirin so‘zda, mehnatkash, kamtarin insonlarga hurmat, yetim va jismonan zaif, ojiz kishilarga, qariyalarga yordam berishda, xushfe‘llikda.

Yaxshilikni qalbi bilan his etadigan inson shirinso‘z, xushfe‘l, insofli, saxiy, muloyim, bilimdon, tiliga e‘tiborli, yuksak odobli bo‘ladi.

Yaxshilik qachon odamlarga yoqadi, qachonki shirin so‘zlar bilan chin ko‘ngildan qilinsa. Bunda: “Sizga yordam bersam, juda xursand bo‘lar edim”, “chin qalbimdan bajardim”, “marhamat, juda xursandman”, “roziman”, “yaxshi istak bilan bajardim”, degan so‘zlarni samimiy ayta oling.

Abdulla Avloniy bobomizning “Yaxshilik yerda qolmas” ertagidan: Bir ari suv ustidan uchib borur edi. Birdan suvga yiqilib ketdi. Qanotlari ho‘l bo‘lib, ucharga kuchi yetmadi. O‘lar holatga yetdi. Buni bir kabutar ko‘rub, ariga rahmi kelub, darhol bir cho‘pni tishlab, suvga tashladi. Bechora ari bu cho‘pni kema qilib, suv balosidan qutuldi.

Oradan ko‘p o‘tmadi. Bir bola tuzoq qo‘yib, kabutarni tutmoqchi bo‘ldi. Ari buni ko‘rgan zamon kelib, bolaning qulog‘ini chaqdi. Bola qulog‘ining og‘rig‘idan tuzoqni tashlab, qulog‘ini ushladi. Kabutar vaqtni g‘animat bilib, uchib ketib o‘limdan qutuldi.

Hissa: Yaxshilikka doimo yaxshilik qaytar.

Xalqimiz orasida o‘z muomalasi bilan odamlarga malham bo‘luvchi insonlar juda ko‘p.

*Yaxshilarning suhbati — jon rohati,  
So‘zlari — dard-u alamning ofati.*

Shirin so‘z odamlar qatori badfe‘l, qo‘pol, dilozorlar ham uchraydi. Ular o‘z dilozorliklari, nodon, bema‘no so‘zlari bilan inson degan yuksak nomga dog‘ tushiradilar.

Ahmad Yugnakiy shunday degan edilar: “Tili bo‘sh, zahar kishining aqli yetuk bo‘ladimi? Til va so‘z ko‘p kishilarning boshini yedi. So‘zni uqib so‘zla, shoshib gapirma, (keraksiz, yaramas) so‘zingni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma...”

Demak, yomon so‘zdan faqat yomonliklar kelib chiqadi.

Bir dono kishi o‘g‘liga aytdi:

— O‘g‘lim, haddan ortiq hazildan saqlan, qadr-qimmating ketagi, huda-behudaga qichqirib kula berma, savlating, ulug‘vorligingni yo‘qotasan. O‘zingdan kattalar bilan hazillashma, ularni g‘azabga keltirasan, kichiklar bilan hazillashsang, ular seni mensimay qo‘yadilar.

### ***Maqollar***

*Yaxshi bo‘lsang, noming chiqar.*

\* \* \*

*Yaxshi gap — doridan yaxshi.*

\* \* \*

*Yaxshi so‘z — ko‘ngil podshosi.*

\* \* \*

*Yaxshlikka yaxshilik har kishining ishidir,  
Yomonlikka yaxshilik mard kishining ishidir.*





1. “Yaxshilik ham, yomonlik ham o‘zingdan” iborasining ma’nosini qanday tushunasiz?

2. Yaxshilik va unga xos fazilatlar nimada?

3. “Yaxshilik yerda qolmas” ertagi sizga yoqdimi?



4. Yomonlik va uning oqibatlari haqida gapirib bering.

5. Maqollarni yod oling va unga amal qiling.

## ANDISHA

Andisha — insonga xos fazilat. Andishali inson har bir so‘zning oqibatini o‘ylab, yuz-xotir qilib aytadi.

Burch, vafo, uyat, mehribonlik, fidoyilik kabi barcha ezgu xislatlarning negizida andisha yotadi.

Maktabdan 3—4 o‘rtog‘i bilan kelayotgan Ahmadjonga qarata, shu ikkichi, bezori bilan o‘rtoq bo‘lasizlarmi, dedi darvozasi oldida turgan Turg‘un.

Yayrab o‘rtoqlari bilan gaplashib kelayotgan Ahmadjon, boshini ko‘tara olmay egilib, yerga qarab qoldi. Uygga kelib ikkinchi marta ko‘chaga chiqmaslikka ahd qildi. Turg‘un andishani unutib, qo‘shnisi Ahmadjonni o‘rtoqlari oldida xijolatga qo‘ydi.

Andisha insondan mehr va hamdardlikni talab etadi. Bordiyu inson befahm, andishasiz so‘zlar qurshovida bo‘lsa, u holda undagi xursandchilik yo‘qoladi. Andishasizlik ko‘rinishlari: uyalmay so‘zlash, jismoniy aybini topib yuziga gapirib, diliga ozor yetkazish.

Hadisi sharifda andishali odamlar haqida shunday deyilgan:

*O‘z aybini bilib, boshqalar aybini qidirmaydigan odam xo‘b yaxshi, andishali odamdir.*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, juda qadim zamonda, Buxoro shahrida bir podsho o'tgan ekan. U ilm-ma'rifatni, donishmandlarni juda ham qadrlarkan. Bilimdonlar bilan bahs-munozara olib borishni yoqtirarkan. Arab, Hindiston, Xitoy mamlakatlaridan ahli ilmlar kelib suhbatlashib, fikr almashib turisharkan.

Kunlarning birida shaharda bir darvesh paydo bo'libdi. Darvesh juda ham bilimdon, shirinsuxan, donishmand chol ekan. Darveshning ta'rifi podshoning qulog'iga borib yetibdi. Podsho darveshni Registondagi arkiga chaqirtirib:

— Qayerliksan, isming nima, qanaqa hunaring bor?— deb so'rabdi.

— Rum mamlakatidanman, bola-chaqam yo'q. Ismim Obloqul bo'ladi. Foniylar dunyoning dastidan yurtimdan bosh olib chiqib ketdim. Boshim oqqan yerlarda tentirab yurdim, oxiri sizning Buxoroyi sharifga keldim. Ilmi hikmatdan saboq olganman,— dedi darvesh.

— Ilmi hikmatdan nimalarni o'rganding?— so'rabdi podsho.

— Men odam, ot va tosh taniyman,— debdi darvesh.

— Xo'sh, odam taniydigan bo'lsang, ayt-chi, mening bobokalonlarim kim bo'lgan?— debdi podsho. Darvesh podshoning qo'lini, peshonasini ushlab ko'ribdi va:

— Taqsir, afv eting meni, siz asli shahzoda emassiz, cho'ponning o'g'lisiz,— debdi. Podshoning jahli chiqib, darveshni jazolamoqchi bo'libdi:

— Seni bu gunohing uchun dorga tortmoq joiz. Mening otam podsho bo'lgan, nega sen cho'ponning o'g'lisiz deysan?— deb do'q qilibdi.




— Taqdir, men yurtiingizda bir mehmonman. Sizga onangiz shoyad anig'ini aytib bersa. Ammo, anig'i shuki, siz shahzoda emassiz!— debdi darvesh.

Podsho onasining huzuriga kirib:

— Ey, onaizorim, sizdan bir so'rovim bor, ayting, otam kim bo'lgan?— deb so'rabdi.

— E, shahanshoh bolam, sen podshoning o'g'lisan. O'zga kimning o'g'li bo'larding,— debdi onasi. Podsho takror so'rabdi:

— Bergan oq sutingiz hurmati, to'g'risini ayting. Bo'lmasa holim tang. Odamshunos bir darvesh sen shahzoda emassan, deb aytdi,— debdi.



Boshqa bahona topolmagach, onasi iqrор bo‘libdi: “Bolam, men ketma-ket qiz ko‘raverdim. Otang: “Agar bu safar ham qiz tug‘sang, seni cho‘lga eltib tashlayman”, deb o‘zi bir necha kunlik safarga chiqib ketdi. Doya xotinlarga: “Shaharni, shahar atrofidagi qishloqlarni qidirib, kimki o‘g‘il tuqqan bo‘lsa, bolasini olib kelinglar”, deb tayinlagandim. Baxtinga, shaharning chekkasidagi qishloqda sen tug‘ilgan ekansan. O‘sha kuni tug‘ilgan qizalog‘imga seni almashib olganman. Bu sirni men bilan o‘sha onang-u, doya kampir biladi, xolos. Onangga ancha tillo, sarpolar beruvdim o‘sha kuni. Qizalog‘imdan xabardorman. Endi bu sirdan sen ham xabardor bo‘lding, onangni ko‘rib tur, bolam”, debdi.

Podsho darveshning donoligiga qoyil qolibdi-yu, so‘ng ikkinchi hikmatini sinab ko‘rmoqchi bo‘libdi. Podsholikdagi eng yaxshi otlaridan birini oldirib kelib, darveshdan so‘rabdi:

— Xo‘sh, ot taniydigan bo‘lsang, ayt, qani, bu otning qanaqa kamchiliklari-yu, qanaqa fazilatlari bor?

Darvesh otning uyon-buyoniga o‘tib qarabdi, oyoqlarini, sag‘risini ushlab ko‘ribdi, so‘ng javob beribdi:

— G‘oyat yaxshi ot. Juda ham ziyrak, chopqir. Unga yetadigan ot podsholikda yo‘q desa bo‘ladi. Ammo bittagina aybi bor, suvdan kechib o‘tayotganida yotib oladi.

Podsho otboqar sinchisini chaqirib:

— Nimaga bu otning ana shu aybini haligacha aytmading? — debdi va otni minib, daryoga solibdi. Suv qorniga yetay deganda ot yotib olibdi.

Tobora ixlosi oshayotgan podsho darveshdagi uchinchi hikmatni sinamoqchi bo‘lib:

— Manavi ota-bobolarim ko‘tarib yurgan qimmatbaho tosh. Podsholik xazinasi boyligiga teng. Qani, ayt-chi, toshning qanaqa siri bor?— debdi.

Darvesh miyig'ida kulibdi-yu, o'rdak tuxumidek keladigan toshni podshoning qo'lidan olib, qulog'iga tutib ko'ribdi, uyoq-buyog'ini tomosha qilibdi-da, so'ng:

— Nihoyatda qimmatbaho tosh, otangiz, bobolaringizdan meros tosh. Xazinadagi tillolar qimmatidan ham ortiq tosh. Ammo bitta aybi bor,— debdi. Podsho bu gapdan hayron bo'libdi.

— Sen mening hamma narsamdan ayb topasan, endi sof yoqut toshdan ham ayb izlayapsanmi?— debdi xafa bo'lib podsho. Shunda darvesh:

— Men rost gapiryapman. Podshoyi olam oldida yolg'on gapirmoq odobdan emas, balki og'ir gunohdir. Toshingizning ichida qurt bor. Sindiring, ichidan qurt chiqmasa, boshimni oldiring,— debdi. Podsho jahl bilan urib toshini ikki bo'libdi. Ichidan qurt o'rmalab chiqibdi. Xijolat bo'lgan podsho darveshga:

— Ey, noinsof, yuz yillardan buyon qo'lda ko'tarib kelingan toshni sindirding-a?— debdi afsuslanib. Darvesh kulib javob beribdi.

— Toshingizni sindirdim, ammo gavhari noyob butun qoldi. Podsho taajjulanib darveshga qarabdi.

— Odamning so'zidan ham qimmatbaho narsa bormi dunyoda? Mingta qimmatbaho tosh bitta shirin, oqilona so'zning sadag'asi ketsin!— debdi.

Podsho darveshga qoyil qolib, uni quyuc ziyorat qilib zarbof chopon hadya qilibdi.

Hissa: Andisha bilan aytilgan so'z baxt keltiradi.



1. Andisha nima?

2. Andishali inson fazilatlari qaysilar? Ulardan qaysi biri sizda bor?

3. "So'z — noyob gavhar" ertagidan o'zingiz hissa chiqaring.



4. Andishasiz gaplardan: jismoniy aybini topib yuziga solish, dag'al gap, o'ylamay gapirish kabi xususiyatlarga oid misollar toping.

# YAXSHILARNING ZIYNATI

## XUSHMUOMALALIK

Xushmuomala, xushxulq, xushfe'l degan so'zlarni xalqimiz yumshoq tabiatli insonlarga qarata aytganlar.

Bir donishmandning aytishicha, xushmuomalalikning o'nta belgisi bor ekan. Ular quyidagilar: insof, aqllilik, ilmlilik, oliyanoblik, ko'rkam fe'llik, yaxshilik, shukronalik, muloyimlik, mehr-shafqatlilik, fidoyilik.

Xushfe'llikning ko'rinishlaridan biri xushmuomalalikdir.

Xushfe'llik nima deysizmi? Ko'pchilik orasida o'zini to'g'ri tuta bilgan, kayfiyati yomonligini bildirmagan, mehr-shafqatini hech kimdan darig' tutmaydigan, har bir ishni aql-mulohaza bilan hal qiladigan insonlar xushfe'ldir.

So'zni qadriga loyiq gapir.

Birovni birovning oldida xijolat qilma.

Qo'pollik — bu odobsizlik. Bunday odamlar qo'pol so'zlari, nomaqbul xatti-harakatlari bilan do'stlariga yoki jamoadagi insonlarga ozor yetkazadilar.

Qo'pol muomala inson qadrini pasaytirib, insonni qo'lga kiritgan baxti, obro' va e'tiboridan mahrum etadi.

*Aziz bolajonlar!*

Yomon so'zlab har kimni kamsitgan, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib, bezorilik qilgan odamni hech kim sevmaydi. Yo'lda ketayotgan odamga qo'pol so'zlar aytib, uni kamsitish, masxara qilish eng yaramas odatlardan biridir. Birovning ustidan masxara qilib kulish, har kimga achchiq

soʻzlar aytib, u bilan qoʻpol muomala qilish goʻzal axloqli, tarbiyali bolaning ishi emasdir.

Ochiq yuzli, shirin soʻzli boʻling. Tilingizni doimo yaxshi soʻzlashga koʻnikting. Yomon soʻzlar aytib, hech kimning koʻnglini buzmay. Bobolarimiz: “Yaxshi soʻz —jon ozigʻi, yomon soʻz—bosh qozigʻi”, deb bekorga aytmaganlar. Ochiq yuzli, shirin soʻzli boʻlsangiz hurmat qozonasiz. “Bu bolalar qanday yaxshi, odobli, tarbiyali bolalar, ularni shunday goʻzal tarbiya qilgan ota-ona va muallimlariga rahmat”, deb hamma sizlarni qadrlaydi.

Xushmuomala inson oʻzini va oʻzgalarni qadrlaydi. Bunday insonlarni insonparvar deyishadi. Insonparvarlar kattalarni hurmatlab, kichiklarga gʻamxoʻr boʻladilar, kasallarga yordam berib, qiyin ahvolda qolganlar holidan xabar oladilar, ularning koʻnglini koʻtaruvchi shirin soʻzlarini ayamaydilar.

Inson eng avvalo oʻz manfaati uchun lozim boʻlgan vazifalarni ado etishi kerak: salomatlikni saqlash, vaqtida ovqatlanish, orasta yurish, yomon ishlardan saqlanishdir. Keyingi vazifasi ota-ona, aka-uka va qarindoshlariga cheksiz mehribon boʻlish. Bu esa, uning fuqarolik vazifasiga kiradi.

*Istasankim yetmasin senga balo,  
Ota-onangga sira qilma jafo.  
Qilma yotliq oʻz qarindoshingni koʻr,  
Koʻrding ersa, lutf qilib holini soʻr.*

Undan keyingi vazifa Vatan, xalq oldidagi burchni ado etishdir. Turli millat xalqlarini hurmat qilish, ularga ozor yetkazmaslik ham ulugʻ vazifadir. Bu borada bobokalonimiz Ahmad Yassaviyning quyidagi soʻzlarini unutmaylik:

*Sunnat ermish kofir bo'lsa herma ozor,  
Ko'ngli qattiq dilozordan xudo bezor...*

Xushmuomalalik haqida donolar aytganlar:

*Har kishining bor esa yaxshi so'zi  
Orttirar obro'sin albatta o'zi.*

\* \* \*

*Barcha yerda istasang, o'tsin so'zing,  
Yaxshilik birla qurollantir o'zing.*



1. Xushmuomalalik nima?

2. Xushmuomalalikning nechta belgisi bor?

3. Xushfe'l inson qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?



4. Qo'pollik va uning oqibatlari.

5. Xushmuomalalikka doir maqollarni to'plang, ularni yod oling.

## O'Z QADRINI BILMAGAN, O'ZGA QADRINI BILMAS

“Inson” deyilganda, uning ko'p ajoyib fazilatlarini qatorida odobi, vijdoni bilan irodasi ko'z o'ngingizda gavdalanadi. Insonning yaxshi yo yomonligi, odobi yoki odobsizligi, shafqatli yoki shafqatsizligi, kamtar yoki takabburligi boshqalarga bo'lgan muomalasida bilinadi.

Shuning uchun xalqimiz: “O'z qadrini bilmagan, o'zga qadrini bilmas”, naqlini yaratgan.

**Hikoyat.** Qadim zamonda bir shaharning Abdumalik ismli hokimi asir tushgan aqlli, dono bir odamga bo'lmag'ur ayb qo'yib jazo bermoqchi bo'lib turganida, uning kichik o'g'li

kirib keladi. Otasiga “Muallimim meni jazoladi”, deb yig‘lab-yig‘lab muallimidan shikoyat qildi.

Abdumalik juda g‘azablanib, darhol muallimni chaqirtirib, huzuriga keltirdi. Bolasini jazolagani uchun bechora muallimni qattiq koyidi. Buni ko‘rib turgan haligi dono asir Abdumalikka qarab:

— Muallimni bekorga koyidingiz, u bechorada ayb yo‘q. Ayb o‘g‘lingizdadir. Muallimlar ma‘naviy otadirlar. O‘z shogirdlarining aqlli, tarbiyali bo‘lib yetishmoqlarini istaydilar. O‘g‘lingiz darslarini pishiq tayyorlamay, yomon yo‘llarga kira boshlaganini ko‘rgach, muallim bir necha marta nasihat qilsa ham foyda bo‘lmagach, yengilgina bir jazo bergan bo‘lsa kerak. Endi o‘g‘lingiz “Otam bor ekan, nima ish qilsam qilaveraman”, degan fikrda bo‘lib, noma‘qul ishlarni yana ham kuchaytiradi. Farzandingiz odobsiz bo‘lib qoladi. Siz bunga rozimisiz?

Abdumalik asirga xitob qilib:

— O‘z boshingga nima voqea kelishini unutdingmi? Mening ishlarimga nega aralashasan?— degan edi, asir shunday javob berdi:

— Ehtimol, meni o‘ldirishga buyurarsiz. Haqiqiy, chin inson o‘z aybini yashirishi aybdir. Mening so‘zlarim siz uchun, hamma ota-onalar uchun foydalidir. O‘limim oldidan bir ezgulik qilishni istardim. Ezgulikni yashirishni vijdonim qabul qilmaydi...

Abdumalikka asirning “O‘z qadrini bilmagan odam, o‘zgalar qadrini bilmas” degan so‘zlari ta‘sir qilib, o‘g‘li va o‘z aybini tushunib uni ozod etdi. Muallimga ham ehson berib, uzr so‘radi. O‘g‘lini odobli, xushmuomala, shirinso‘z qilib tarbiyalashga va‘da berdi.

O‘z aybini anglash, qo‘pollik qilmaslik, haqiqatni tushunish, shirinso‘zlik, oliyjanoblik, o‘zgalar qadriga yetish yaxshi fazilatdir.

## **Hikmatlar**

*Kimki birovning qadriga yetmasa, nazarimda boshqalar uning qadriga yetmaydi.*

**Demokrit**

*Do'stlik umr uchun obihayotdir. Chunki har jihatdan baxt-saodatga erishgan kishi ham do'stsiz umrini o'zgaga ravo ko'rmaydi.*

**Aristotel**

*Qadrini bilgan odam o'z izzatini ham bilishi kerak. Izzatini bilish: o'zgalar bilan muomalada o'ylab gapirish, chaqirgan joyga borish, do'stini hurmatlash, shodlik va qayg'ularini baham ko'rish, mehr-shafqatli bo'lishlikdadir.*

*Inson fe'li kengligi, mehnatsevarligi, kamtarligi, birovni kam-sitmasligi bilan elda azizdir.*

## **Hadislar**

*Boshqalardagi kamchilikni ko'rib, o'zini tuzatgan odam saodatlidir.*

\* \* \*

*Odamlarga yetadigan yaxshiliklardan minnatdor bo'lmaydigan odam Ollohning ne'matlariga ham shukur qilmaydi.*



1. Hikoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

2. Izzat va obro'ga ega bo'lish uchun qanday sifatlar zarur ekan?



3. "O'z qadrini bilmagan odam, o'zga qadrini bilmas" naqlining ma'nosini sharhlab bering.

4. Hikmat va hadislarini o'rganib, ularga amal qiling.



## KULISH MADANIYATI

Kulgi inson kayfiyatini chog'laydigan, huzur bag'ishlaydigan holatdir.

Samimiy va soxta kulgilar bor. Samimiy kulgida inson yurakdan zavqlanadi, butun vujudi rohatlanadi. Soxta kulgida esa sun'iylik sezilib turadi, qalbdan chiqmagan kulgi zamirida hasad, g'araz yashirindir.

Kulgi chiroyli, me'yorida bo'lishi kerak. Og'izni katta ochib, beo'xshov kulish odobdan emas. Alisher Navoiy bobomiz me'yoridan oshgan kulgiga asarida ajib o'xshatish ishlatgan edilar: *“Kulgi o'z me'yoridan oshib ketdimi, bundan yig'lagan ancha yaxshiroqdir. Gul g'unchasi kulgani uchun uni shamol uchirib ketadi. Chaqmoq esa kula-kula pastlashadi. Odobli odam kulish uchun og'iz ochmaydi”*.

O'zbek xalqi qadim-qadimdan hazil-mutoyibaga o'chdir. Bir qaynovi kam gaplar, askiyabozlik, latifago'ylik va lofchilik bilan to'ylar, marosimlar, bayramlar qizitilgan, xalqning kayfiyati ko'tarilgan.

Xalqimiz orasida o'zining zukkoligi, bilimdonligi, aqlu farosati bilan mashhur bo'lgan Afandi insonlarga ming bir kulgini hadya etgan.

### AFANDI VA OY

Afandi bir kuni kechasi hovuz labiga borib, suv olmoqchi bo'lib qarasa hovuz tagida oy turgan emish. Oyni olay deb, uzun yog'ochga o'roqni bog'labdi. Yog'ochni oyga qarab tashlabdi. Tortaman desa, o'roq ildizga ilingani uchun chiqmabdi. U bor kuchi bilan tortibdi, chiqmabdi. Oxiri, yog'och sinib ketibdi. Afandi zabti bilan hovuzga ag'darilib tushibdi.

Hovuzda turib osmonga qarasa oy turgan emish. Afandi: “Xudoga shukur, oyni osmonga chiqaribman”, — debdi.

**Hikoyat.** Ertakchi dedi: — Bir kuni bir kaklik tog‘ etagida sayr qilib yurar va qahqahasining sadosi falak gumbazigacha yetardi. Nogoh lochin o‘sha yerdan uchib o‘tdi. U kaklikning yurishini va xandon otib kulishini ko‘rib, ko‘ngli ochilib ketdi va unga mehr qo‘yib, u bilan suhbat qilish ishqiga tushdi. O‘zicha: “Bir mehribon hammaga ham lozimdir, — deb o‘yladi. — Bu kaklik juda chiroyli, dilrabo va xushraftor ekan, agar shunday do‘st va hamdaming bo‘lsa, suhbatidan ko‘ngil bahra olg‘ay”.

Shu so‘zlarni aytib, lochin ohista kaklikka yaqinlashdi. Kaklikning ko‘zi unga tushishi bilan qo‘rqqanidan bir tosh teshigiga kirib ketdi. Lochin havodan tushib, teshikka yaqin keldi va dedi:— Ey kaklik, ilgari sening bu qadar ajoyib qush ekanligingni bilmas ekanman. Bugun sening qahqahalarining va yurishing meni asir qildi. Mendan aslo qo‘rqmay mehr qo‘ysang, do‘stlik daraxtidan murod mevasi yetishar degan umiddaman...

Kaklik bekingan joyidan ovoz berdi:— Ey qahramon, men bechoradan qo‘l tort va o‘zingcha bugun bir kaklikni tutib yedim, deb qo‘ya qol. O‘t bilan suv bir-biriga qo‘shilgandagina ikkimiz do‘st bo‘la olamiz.

Lochin dedi: — Ey, aziz, o‘zing bir o‘ylab ko‘r, mehribonlikdan o‘zga qanday narsa meni shirin so‘zlashga majbur qilishi mumkin? Changalimdan quvvat ketibdimiki, senga o‘xshaganlarni ov qila olmay, hiyla ishlatsam, tumshug‘imga putur yetibdimiki, shikorga yaramay qolgan bo‘lsam. Menda hamdamlik va hamsuhbat bo‘lishdan boshqa orzu yo‘q. Mening suhbatim senga ko‘p foyda keltiradi. Birinchidan, yirtqich qushlar mening himoyam ostida ekanligingni ko‘rib, senga tajovuz qilmaydilar va sen tog‘ etagida xotirjam yo‘rg‘alab yuraverasan. Ikkinchidan, seni o‘z uyamga olib boraman, u

yerda baland mavqeda, o'z o'rtoqlarindan baland darajada bo'lasan, o'z jinsingdan bir chiroyligini keltirib beraman, u bilan birga o'ynab-kulib yurasan.

Kaklik dedi: — Sen qushlar amirisan. Parrandalarning ixtiyori sening qo'lingda. Agar iltifotingdan umidvor bo'lib, aytganingga ko'nsam, ehtimol, ta'bingga yoqmagan biror ish qilib qo'yib, g'azabingga giriftor bo'laman. Yaxshisi shuki, o'z xilvatxonamda tinchgina o'tiray va xatardan xoli bo'lmagan hokimlar xizmatini ixtiyor qilmay qo'ya qolay.

Lochin dedi: — Ey, azizim, do'stlikning ko'zi ko'r ekanligini bilmaysanmi? U aybni ko'rmaydi, do'stdan sodir bo'lgan har qanday yomonlik zebo ko'rinadi. Men sening qilgan ishlaringga muhabbat ko'zi bilan qarab, so'zlaringni mehr qulog'i bilan eshitaman.

Kaklik uzrini aytib, qancha bahona keltirmasin, lochin uning uzrini inobatga olmadi. Nihoyat, kaklik teshikdan chiqdi, ular bir-birlari bilan quchoqlashib, do'st bo'lishga ahd-paymon qildilar. Lochin kaklikni o'z uyasiga olib ketdi. Ular totuvlik va xursandchilik bilan umr kechira boshladilar. Kaklik lochindan qo'rqmay, ibosiz gaplar aytib, beadabona harakatlar qila boshladi. So'z orasida qahqaha otib kular, lochin ham ularni hazilga yo'yib, o'zini bilmaslikka solar edi. Ammo do'stining harakatlari uning jahlini qo'zg'ay boshladi. Bir kuni lochin betoblanib, ovga chiqa olmadi. Kechasi qorni juda ham ochdi, ginalar esiga tushsa, kaklikni yegisi kelar, ahd-paymoni esiga tushsa, o'zini bosar edi.

Kaklik lochinning avzoyini ko'rib, o'zining halok bo'lishi muqarrar ekanini tushunib qoldi va fig'on chekib dedi: — Afsuski, avvalda ishning oxirini o'ylamadim, yetti yot begonaga oshna bo'ldim. Ulug'lar nasihatini quloqqa olmadim, ular: “Nojins suhbatidan ilondan qochgandek qoch”, degan edilar. Bila turib, o'zimni o'tga tashladim, hayotim iplari uzildi, endi nima qilay?

Kaklik o'zi bilan o'zi gaplashib turganda lochin changalini yozib, qonxo'r tumshug'ini charxlab, kaklikka tashlanishga bahona qidirar edi.

Lochin hech qanday bahona topa olmay, betoqat bo'lib, achchiq aralash dedi: — Menga oftob yomon ta'sir qildi, sen esa soyada rohat qilib yotibsan.

Kaklik dedi:— Ey, jahongir amir, hozir tun, butun olam qorong'ulik qo'ynida. Sizga qaysi oftob yomon ta'sir qilyaptiyu, men nimaning soyasida rohat qilib yotibman?

Lochin dedi:— Ey, beadab, meni yolg'onchi qilasanmi?— deb changalini yozdi, kaklikning ikki butidan ajratib tashlab, go'shtini yedi.

Hikoyatdan hissa: Do'st tutingandan so'ng uning ustidan kulmaslik, beadab so'zlarni aytmaslik, boshiga tashvish tushganda unga yordam berish kerak. Kaklik beodoblik qilib lochin ustidan kulganligi uchun unga yem bo'ldi.

### **Bunday kulish odobdan emas:**

- 1. Ko'chada, jamoat joylarida baland ovoz bilan qah-qah otib kulish odobsizlikdir.*
- 2. Aslo birovning xatti-harakatiga qarab kulmang.*
- 3. Ko'p kulishlik dilni o'ldiradi (Hadisdan).*
- 4. Kerak-kerakmas kulgi inson izzatini ketkizar.*



1. Kulgi nima?
2. Kulgi turlari haqida nima bilasiz?
3. Kulgi haqida donolar hikmatlari.
4. Afandi latifasi Sizga yoqdimi? Siz ham Afandining bitta latifasini o'rtoqlaringizga aytib berib, ularni xushnud qiling.
5. Kulgi turlariga munosabatingiz.
6. Hikoyatni o'qing. Unga o'z munosabatingizni bildirib, xayolan shunga o'xshagan hikoya tuzing.



# BOLA HUQUQLARI

## “BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDA KONVENSIYA”\* NIMA?

Huquq nima?

Huquq — davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo‘riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladigan qonun-qoidalar, me‘yorlar majmui.

Kishiga biror ish-harakat uchun berilgan, davlat qonunlari yoki boshqa xil hujjat-qarorlar bilan mustahkamlangan, kafolatlangan imkoniyat, erk, ixtiyor ham huquqdir.

Bolalar kichikligidanoq o‘z haq-huquqlarini tanib, kattalar oldidagi burch va mas‘uliyatlarini to‘g‘ri anglab, ma‘nan va jismonan barkamol avlod bo‘lib shakllanishlari lozim. Dunyoda bolalardan ko‘ra himoyaga muhtojroq insonlar yo‘q. Bir og‘iz iliq so‘zdan ularning ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilib, salgina dilxiralikdan ko‘ngillari vayron bo‘ladi. Ba‘zan kattalar e‘tiborsizlik qilib, kichikintoylarni noo‘rin ranjitib qo‘yadilar. Arzimas sho‘xliklari uchun qattiqqo‘llik bilan jazolaydilar. To‘g‘ri, farzand tarbiyasi uchun ota-ona, o‘qituvchi, tarbiyachilar javobgardirlar. Biroq,



\*Konvensiya (lotincha) — xalqaro shartnoma turlaridan biri.

kerak bo'lganda qo'llaniladigan jazo choralari me'yoridan oshib ketmasligi lozim. Aks holda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Keyin ming afsus, pushaymon qilingani bilan hech narsa o'rniga tushmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT)ning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam bilan ta'minlanish huquqiga ega ekanliklari alohida bandlarda yozilgan. BMT Nizomida e'lon qilingan g'oyalar — tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik ruhida tarbiyalanishlari lozimligi, jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda og'ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi va ular alohida e'tiborga muhtoj ekanliklari ta'kidlangan. Yana ko'plab jihatlarni e'tirof etgan holda 1989-yilda BMT tomonidan "Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya" qabul qilindi. Ushbu Konvensiyani 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi rasman tan oldi. Konvensiya 54 moddadan iborat. Uning mazmuni bilan nafaqat bolalar, balki kattalar ham tanishib chiqsalar foydadan xoli bo'lmasdi.

Quyida Konvensiyaning ayrim moddalari berilmoqda. Bolalar ularni o'rganishlari, o'z haq-huquqlarini bilib ulg'a-yishlari lozim.

**3-modda.** Farovonliging uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlanish huquqiga egasan.

**6-modda.** Yashash va sog'lom rivojlanish huquqiga egasan.

**7-modda.** Ism bilan atalish, fuqarolikka, millatingga ega bo'lish, o'z ota-onangni bilish huquqlariga egasan.

**12, 13, 14-moddalar.** O'z qarashlaringni, fikringni erkin ifodalash, vijdon va din erkinligi huquqiga egasan.

**19-modda.** Ota-ona yoki har qanday boshqa shaxs tomonidan haqoratlanish, qo'pol muomalada bo'lishdan himoyalash huquqiga egasan.

**20, 21-moddalar.** Oila g'amxo'rligidan mahrum bo'lganda davlat tomonidan ko'rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egasan.

**24-modda.** Zarur tibbiy yordam ko'rsatilish va sog'lig'ingni saqlash huquqiga egasan.

**26-modda.** Ijtimoiy ta'minot ne'matlaridan, ijtimoiy sug'urtadan foydalanish huquqiga egasan.

**28-modda.** Ilm olish huquqiga egasan.

**31-modda.** Dam olish va bo'sh vaqtingni maroqli o'tkazish huquqiga egasan.

**32-modda.** Iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda sog'liging uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqiga egasan.

**33, 34-modda.** Giyohvandlik moddalaridan g'ayriqonuniy ravishda iste'mol qilishdan, shahvoniy maqsadlarda foydalanish shakllaridan himoya qilinish huquqiga egasan.

**37-modda.** Qiynoqlarga yoki boshqa shafqatsizlarcha jazoga duchor etilmaslik huquqiga egasan.

**38-modda.** Qurolli mojarolarning ta'siridan himoyalaniş huquqiga egasan.



1. Huquq degani nima ekan?
2. Nima uchun bolalar himoyaga muhtoj?
3. "Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya" nima ekan?
4. Ushbu shartnomaga ko'ra bolalar qanday huquqlarga ega ekanlar?



5. Boshqalar tomonidan huquqingiz buzilgan holatlar bo'lganmi? Endi shunday holat yuz bersa, qanday yo'l tutasiz?
6. Ushbu Konvensiya haqidagi fikrlaringizni yozib keling.

## BUNI SEN BILISHING KERAK

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson, shu jumladan, bolalar haq-huquqlari belgilab berilgandir. Har bir o'quvchi quyidagilarni bilib, o'zlashtirib olishi shartdir.

### Shaxsiy huquq va erkinliklar

**24-modda.** Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

**26-modda.** ...Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

**29-modda.** Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

**31-modda.** Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

*(Ikkinchi bo'lim, VII bob).*

**40-modda.** Har kim malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

**41-modda.** Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

*(Ikkinchi bo'lim, IX bob).*



**64-modda.** Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining va-siyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyat-larni rag'batlantiradi.

*(Uchinchi bo'lim, XIV bob).*

Yuqoridagi huquqlar buzilganda, inson aql bilan ish tutishi lozim bo'ladi. Qo'pollik yoki janjal chiqarish hech qanday natijaga olib kelmaydi. Shunday vaziyatlarda odam bosiqlik bilan, qonun doirasidan chetga chiqmasdan toptalgan huquqini qayta tiklash uchun harakat qilishi kerak. Mana shunday paytlarda insonlar tarbiyasi, odobliligi muhim ahamiyatga ega. O'z haq-huquqini talab qilish, unga erishishda ham odob me'yorlaridan chiqmaslik ishni faqat yaxshi tomonga hal etishini unutmaslik lozim.



1. Bilim olish huquqi to'g'risida Konstitutsiyamizning qaysi moddasida berilgan?

2. Inson haq-huquqi me'yorlari buzilganda, kishi o'zini qanday tutishi lozim?

3. "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega". Bu so'zlar Konstitutsiyamizning qaysi moddasidan olingan?



4. Konvensiya va Konstitutsiyada huquqlaringiz ko'rsatilgan moddalarni daftaringizga ko'chirib yozing.

### KONSTITUTSIYA — ASOSIY QONUNIMIZ!



O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq XI sessiyasida qabul qilingan. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida 8-dekabr — umumxalq bayrami deb e‘lon qilindi hamda shu kun dam olish kuni deb hisoblanadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan tasdiqlandi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi Asosiy qonunimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, oltita bo‘lim, 26 ta bob hamda 128 ta moddadan iborat. Ularning barchasida adolat ustuvordir. Shuning uchun ham Konstitutsiyamiz “Adolat qomusi” deb ataladi.

Uning birinchi bo‘lim, II bob, 14-moddasida ifodalangan quyidagi jumlar fikrimizning isboti bo‘la oladi: *“Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi”*.

Haqiqatan ham Konstitutsiyamizning har bir bandida insoniylik, inson manfaatlaridan kelib chiqqan adolatli qonunlar

ifodalangandir. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari odillik bilan belgilab berilgan.

**18-modda.** O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

*(Ikkinchi bo'lim, V bob).*

**37-modda.** Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalalanish huquqiga egadir.

*(Ikkinchi bo'lim, IX bob).*

**48-modda.** Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

*(Ikkinchi bo'lim, XI bob).*

**49-modda.** Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

*(Ikkinchi bo'lim, XI bob).*

**50-modda.** Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

*(Ikkinchi bo'lim, XI bob).*

**65-modda.** Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

*(Uchinchi bo'lim, XIV bob).*

**66-modda.** Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

(Uchinchi bo‘lim, XIV bob).



1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qayerda va qachon qabul qilingan?

2. Nima uchun Konstitutsiyamiz “Adolat qomusi” deb ataladi?



3. Konstitutsiyamizdan keltirilgan moddalarni o‘rganing va ularga amal qilishni o‘zingizga vazifa qilib oling.

4. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” kitobini o‘zingiz varaqlab, o‘rganib chiqishga harakat qiling.

## ADOLATPARVARLIK — VIJDON AMRI

Adolat odilona va xolisona ish tutishdir. Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz adolatni ulug‘lab, uni vijdon amri, deb baholaganlar. “Vijdonim buyurgan ishni qildim”, “Vijdonimga quloq soldim”, “Vijdonimga xilof ishni qilmadim” kabi iboralar ana shu xususiyat mahsulidir.

Har bir ishni odilona hal etish, unga haqqoniyat ko‘zi bilan qarash, adolatni yuzaga chiqarishga intilish vijdonli kishilarga xos xislatdir. Bunday insonlar yurtimizda juda ko‘plab topiladi. Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham davlatni adolat bilan boshqarganligini butun olam biladi. Bugungi davlatchiligimizda uning o‘g‘itlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amir Temurning “Kuch adolatdadir”, degan so‘zlari adolatsevar kishilar shioriga aylangan. Darhaqiqat, odillik bor joyda baraka, unum bor, o‘sha davlat kuchlidir. Sohibqiron o‘g‘itlariga

qayta va qayta murojaat qilish kishilarni faqat yaxshilikka, o‘z-o‘zini tarbiyalashga yetaklaydi. Bobomiz o‘gitlaridan lavhalar:

— *Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim.*

— *Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo‘lini to‘sdim.*

— *Kechira olishlik — mardlik, kechira bilmaslik — nomardlik sanaladi.*

Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi hikmatli so‘zlari xalqimizning adolatparvarligiga berilgan bahodir: **“Adolatga intilish xalqimiz ma‘naviy-ruhiy dunyosiga xos muhim xususiyatdir”.**

Adolatparvarlik nima o‘zi? Adolatparvarlik adolat tarafdori bo‘lish, adolat va haqqoniyat uchun kurashuvchi bo‘lish demakdir. Bu millatimizga xos fazilat. Yana Prezidentimiz so‘zlarini eslaymiz: **“Inson ochlikka, yo‘qchilikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi. Illo, adolat yo‘q joyda taraqqiyot yo‘q”.**

Darhaqiqat, adolatsizlik kishi ruhiyatini ezadi, orzu-umidlarini poymol etadi, kelajakka ishonchini yo‘qotadi, umr zavoliga olib keladi. Bu esa, albatta, jamiyat taraqqiyotiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Bas, shunday ekan, kishilar bir-birlariga muruvvatli bo‘lishlari, odillik bilan ish tutishga intilishlari lozim.

## SHUM TULKI

*O‘zbek xalq ertagi*

Tovuqlar tulkinging ustidan arz qilgani ayiqning oldiga borishibdi.

— Ayiq polvon,— debdi ular.— Tulkiboy dastidan bizga kun yo‘q. Har kuni kechasi tovuqlarni qiyratgani-qiyratgan. Hech kimdan hayiqmaydi.

— Tulki-ya... Obbo muttaham-ey... Men uning jazosini beraman,— debdi ayiq.

U tulkini chaqirtiribdi. Tulki kelib dumini likillatib, ay-yorlik bilan shunday debdi:

— Ayiq hazratlari... Men siz azizning biqiningiz toshga botmasin deb yostiqlik keltirdim,— u ayiqqa yumshoqlik yostiqlik beribdi.— Bular bo'lsa sizning g'aminingizda yurganimni bilishmaydi.

Ayiq yostiqlikqa suyanib rohat qilibdi va:

— Ahmoqlar, boringlar, ikkinchi bunaqa bema'ni gaplar bilan arzga kelmanglar,— deb tovuqlarni quvib yuboribdi.

Shu kech yana ikkita tovuqning sho'ri quribdi.

Tovuqlar endi bo'riga arz qilishibdi.

— Dod, tulkinging dastidan,— deyishibdi ular.

Bo'ri tulkini tirqiratib, haydab keltiribdi.

— Bo'ri janoblari,— debdi tulki dumini likillatib,— men biqiningiz yerga botmasin deb yostiqlik keltirdim.



U bo‘rining yonboshiga yumshoq yostiq qo‘yibdi.

— Bu popukli ahmoqlar sizning g‘amingizda yurganimni bilishmaydi,— debdi tulki.

Bo‘ri paryostiqa suyanib rohat qilibdi va tovuqlarga do‘q urib:

— Ko‘zimdan yo‘qolinglar, badbaxtlar. Tulki ishini bilib qiladi. Bundan keyin xayrli ish qilganlar ustidan arz qilib kelmanglar,— deb baqiribdi.

Tovuqlar jonlarini hovuchlab, uylariga qaytishibdi. Shu kechasi yana uch tovuq tulkiga yem bo‘libdi.

Ertasiga tovuqlar Mo‘ynoqqa arzga borishibdi.

Tulki Mo‘ynoqqa ham yostiq berib:

— Sizning g‘amingizni yeb yurgan edim,— debdi.

Mo‘ynoq yostiqa qaramabdi.

— Bu ayyor tulkini yaxshilab kaltaklanglar!— deb buyuribdi Mo‘ynoq itlarga.

Itlar tulkini o‘rtaga olib, rosa ta‘zirini berishibdi.

— Endi cho‘lga haydab yuboringlar uni,— debdi Mo‘ynoq.— Bo‘lmasa tovuqlarning go‘shini yeb, pati bilan yana ko‘plarni aldaydi bu ayyor.

Shum tulkini cho‘lga quvib yuborishibdi.



1. “Adolatparvarlik — vijdon amri” deganda nimani tushundingiz?

2. Amir Temurning adolatparvarligi haqida sizda qanday taassurot paydo bo‘ldi?

3. “Kuch adolatdadir” iborasining mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan gapirib bering.

4. Ertakdan adolatsizlik tasvirlangan o‘rinlarni toping, uni qayta o‘qing, fikr bildiring.

5. Ertakdan adolat tantanasi tasvirlangan o‘rinni toping, uni qayta o‘qing va fikr-mulohazangizni daftaringizga yozing.



# NAFSNI AQL BILAN BOSHQARISH

## BADNAFS BO'LMA, SHUKUR QIL

Nafs insonning yashashi, tanasi sog'lom bo'lishi uchun zarur bo'lgan narsalarni iste'mol qilishidir.

Inson yashashi, ishlashi uchun noz-ne'matlarni iste'mol qiladi va turmush tarzini yaratadi. Inson o'z hayoti davomida havo, suv, oziq-ovqat, mevalarni iste'mol qilishi, o'z vaqtida dam olishi, kiyinishi, kitob o'qishi, musiqa tinglashi, ishlashi zaruratdir.

Inson nafsini aql bilan boshqara olganda u jamiyat uchun foydali shaxsga aylanadi.

Hind donishmandi Buzurukmehrardan so'rabdilar:

— Donishmand, ayting-chi? Qaysi xislat odamni past martabadan a'lo darajaga ko'taradi?

Donishmand javob berdi:

— Aql bilan nafsini boshqarganda.

Inson dunyoga kelar ekan u bilan nafs ham, aql ham birga tug'iladi.

Nafsni tiyishning turlari:

— Insonning yemoq, ichmoqdan tiyilishi.

Abduholiq G'ijduvoniylaridek:

— *“Oz ye, oz ich, oz gapir”, naqliga amal qilishlik.*

— *Kiyinish, zeb-ziynat, mol-dunyoga hirs qo'yishdan saqlanish.*

— *Nafs orqali zararli odatlarni o'ziga shior qilib olishdan saqlanish.*

Nafsni me'yorida saqlash borasida bobokalonlarimizdan Ahmad Yassaviy shunday degan edilar:



— *Nafs qushdek qo‘lga qo‘nmas bir narsa. Bu “qush” o‘z xohishicha “parvoz” etaversa, odamni kundun kunga to‘g‘rilikdan ozdiradi.*

Oqibatda esa:

*Nafs yo‘liga kirgan kishi rasvo bo‘lur,  
Yo‘lidan ozib, toyib, to‘zib gumroh bo‘lur.  
Yotsa, tursa shayton bila hamroh bo‘lur...  
Nafsim mani yo‘ldan urub xor ayladi.  
Termultirib xaloyiqqa zor ayladi.*

Ahmad Yassaviy nafsni aql bilan tiyilmasa: “*U ichki, lekin juda qattiq dushman*”, — degan xulosaga kelgan edilar.

Har bir ishni aql bilan bajarish ilmi, farosatli odamning ishidir.

Aql esa uchragan narsani tushunib olish qobiliyatidir.

Qur‘oni karim barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqiradi. Unda shunday oyat bor: “*Albatta ko‘p odamlar ilmsizligi uchun nafsga berilib, yo‘ldan adashadilar*” (An‘om surasi, 119-oyat).

Nafs yo‘liga kirganlar aqlini unga bo‘ysundirib olsa, u boshqalar kabi o‘ylash, eslashga qodir bo‘lmay, faqat bir narsa atrofida o‘ralashib qoladi. Unday kishi qilgan ishlari yomon — odobdan bo‘lmasa-da, lekin o‘z foydasini o‘ylaydi. Unday insonlar ochko‘zlik, baxillik, g‘azab, hasad, xasislik kabi sifatlar bilan o‘z nafslariga erk beradilar.

Ochko‘zlik — bu nafsga erk berib yaxshi taomlarga o‘ch bo‘lish, mol-dunyo to‘plashga berilish. Bunday odamlarda yaxshilik qilish xislati zaiflashadi, uning o‘rnini manmanlik, berahmlik, isrofgarchilik egallaydi.

Ochko‘zlik insonni obro‘sidan, izzatidan mahrum etadi.

**Hikoyat.** Bir podsho o'g'lini chaqirib so'radi:

— Olamda yashashdan maqsading nima?

— Tugamas mulkim bo'lsa, — dedi o'g'li, — yesam, ichsam, ovga chiqsam, lazzatli hayot kechirsam.

Shoh bir xizmatkorni chaqirdi:

— Xo'sh, yashashdan muroding ne?

— Qo'limdan kelguncha o'zimdanda o'jizlarga lutf-marhamat, insonlarga saxiylik ko'rsatish, — dedi xizmatkor.

Shundan keyin podsho nafs balosiga uchragan o'g'lini chetlab, aql bilan ish tutgan xizmatkorni taxt vorisi qilib tayinladi.



1. Nafs nima? Uni tiyish deganda nimani tushunasiz?

2. Aqlning kuchi nimada ekan?

3. Ahmad Yassaviy nafsni nimaga o'xshatdi, bu haqda qanday she'r yozgan edi?



4. Nafsga berilish oqibatida insonda paydo bo'ladigan ochko'zlik, baxillik, hasad, g'azab kabi salbiy sifatlarga doir hikmatlar toping.

## SALOMATLIK KUSHANDALARI

Salomatlik inson uchun eng aziz ne'matdir. "Salomatlik — tuman boylik" naqli insonlarni o'z salomatliklarini asrashga, o'zini parvarish qilishga, aql bilan ish tutishga da'vat etadi.

Badanni yuvib tozalab turish, oz yeb, oz ichib, oz gapirishga amal qilish, shu bilan birga nafsni ham, qalbni ham pok-sof holda tutish, go'zal odobli bo'lish salomatlik uchun qayg'u-rishdir.


Lekin hayotda o'z salomatliklarini o'ylamay, aql bilan ish tutmay yomon yo'lga kirgan odamlar ham uchraydi. Inson

salomatligini, kuchini, obro‘yini ketkazadigan illatlar oxir-oqibatda uni jar yoqasiga olib keladi. Spirtli ichimliklarni iste‘mol qilish, tamaki chekish, giyohvand moddalar bilan o‘zini ovuntirish har qanday insonni xarob qiladi, umriga zomin bo‘ladi.

Tamaki chekish aholi orasida eng ko‘p tarqalgan yaramas odat. Kashandalar sigareta charchoqni yozadi, deb o‘ylashadi. Shuning uchun chekishni “charchoq bosdi”. deb hisoblaydilar. Bunday fikr, albatta, noto‘g‘ri. Sigaret chekib bo‘lgach, oradan ozgina vaqt o‘tishi bilan miyaning qon bilan ta‘minlanishi sustlashadi, chunki qonga nikotin degan zaharli modda tushadi.

Shavkat o‘n yoshida tog‘asining sigareta chekishiga taqlid qildi. Yerdan yotgan papiros qoldig‘ini olib, og‘ziga soldi. Maktabga borishdan oldin onasidan ovqat uchun pul so‘rab, sigareta sotib oldi. Keyinchalik tilanchilik qilib chekishga ruju qo‘ydi. Shu tariqa Shavkat ashaddiy kashandaga aylandi. Oqibatda o‘pkasi zarar ko‘rib, kasal bo‘ldi. Shifokorlar xulosasiga ko‘ra, Shavkat o‘pka raki kasaliga muhtalo bo‘lgan edi.

Chekish oqibatida tomirlarda qon aylanishi yomonlashadi va yurak turli og‘ir xastaliklarga chalinadi. Chekish faqat inson salomatligiga putur yetkazibgina qolmay,



balki yon-atrofdagi chekmaydigan kishilarga, ayniqsa, yosh bolalarning tabiatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Donishmandlardan biri aytgan ekan: *“Bolalar tatib koʻrish uchun chekadilar. Agar yoshlar salomatlik — katta boylik ekanini va sihat-salomatlik oʻzlariga bogʻliq ekanligini tushunsalar, ular shunchaki “rohat” qilish uchun chekmas edilar”*.

Salomatlikning yana bir dushmani nasha chekishdir. Uning oqibatida inson jamiyatda oʻz oʻrnini yoʻqotadi, hayotdan bemahal koʻz yumib, oʻz umrini xazon qiladi.

### ICHKILIK

Kim ichkilikka berilsa, hayotdagi goʻzalliklardan bebahra qoladi. Elning laʼnati, nafratiga duchor boʻlib, oʻz nomiga dogʻ tushiradi.

Afandi koʻchadan oʻta turib, ikki mastning suhbatini tinglabdi:

Bir mast devorga suyanib, zoʻrgʻa kelayotgan, balchiqqa belanib yotgan sherigiga koʻzi tushib, unga oʻzicha tanbeh beribdi:

— E, no-o-insof, xurmachangga sigʻganicha ichsang boʻlmaydimi? Ahvolingni koʻr.

Shunda haligi mast sherigiga debdi:

— E, no-o-mard, shundoq devordan qoʻlingni olib gapirchi, koʻramiz, sening ham holing nima kecharkin?!

Afandi ularning holiga achinib, shunday debdi:

— Ey, insonlar, ichkilik orqali kimga, nimaga oʻxshaysizlar? Attang, attang bularga inson degan nom hayf.



1. Salomatlik kushandalari nimalar ekan?
2. “Salomatlik — tuman boylik” maqoliga amal qilasizmi?



3. Ichkilikning oqibatlari haqida nima deysiz?
4. Kashandalik oqibatlari haqida fikr bildiring.
5. Kuzating. Chekishga, ichishga va nashavandlikka berilgan odamlar taqdiri nima bilan tugallanadi? Ko'cha va mahallangizda shunday odamlar bo'lsa, ularning hayoti, sog'lig'ida qanday o'zgarishlarni ko'rdingiz?

## ZARARLI XULQ VA ODATLAR

Ayrim odamlar nafsini tiya olmaslik oqibatida qimmatli umrini buzuq ishlarga sarf qiladilar.

Qimor o'yiniga muhtalo bo'lsang, izzat va jon mulkiga qiron keltirasan, oz fursatda bor-yo'g'ingni, hurmat va obro'yingni qo'ldan boy berasan.

*Qoch, o'ynamagil qimor hargiz,  
Yo'q, bu kabi nobakor hargiz.  
Buna'an yana hir yomon halo yo'q,  
Bir dard erur, unga davo yo'q.*

Zararli xulq va odatlardan yana biri o'g'rilikdir.

O'g'rilik — birovning moliga ko'z tikish, nopoklikdir. Hamma tinch, farog'atda yashasa, o'g'ri doimo xavfda, iztirob-alam bilan yashaydi. U o'z sog'lig'ini yo'qotadi, chunki odamlar unga odam sifatida emas, balki qo'li egri kimsa sifatida nafrat bilan qaraydilar.

*Berma ozor kishiga, qilma o'g'rilik zinhor,  
O'g'ri doim chekadur ranju uqubat bisyor.*

Donolar aytadilar:

*Nafs deb odamlar e'tiboridan qolish yomon.*

*El e'tiboridan qolgan o'g'ri,  
Umrbod xorlikda qolgan.*

*Johilda jahlu, oqilda aql,  
Johil judo qilur, oqil ahil.*

*Hirs va ochko'zlik zanjiriga bog'langan bo'yin  
pushaymonlik tig'i bilan kesiladi.*

Hikmatlar ma'nosini anglab, unga amal gilishni unutmang. Bular sizni yomon yo'ldan qaytarib, umringizga mazmun bag'ishlaydi. Salomatlikka ziyon yetkazuvchi, jamiyatimizga zarar keltiruvchi kishining obro'-e'tiborini to'kuvchi, nafs balosiga undovchi yaramas xulqlardan o'zingizni asrang. Bular — yalqovlik, hiylagarlik, ziyonkorlik. Bu xulqlar odatga aylanmasin.

Yalqovlik odamni mehnatdan bezdirib, kasallik keltiradi, tabiatini buzib, muhtojlikka olib keladi. Bu dunyoda odam faqatgina mehnat orqasidangina qadr-qimmatga ega bo'ladi. Mehnatni sevmagan yalqov kishi, har turli nomaqbul ishlardan tortinmaydi va el nafratiga uchraydi.

Hiylagarlik ham odobdan emas. Hiylagarlik — qancha yolg'on-yashiq so'zlar aytib, boshqalarni aldab, o'zi istagan ishni qilishdir.

Ahmadjon maktabga bormaslik uchun yolg'ondan “tobim yo'q, boshim zirqirab og'rib turibdi”, deb ota-onasini aldab uyda qoldi. Ertasiga uyda yozib kelishga buyurilgan vazifani bajarmaganligi uchun “vazifani kitobimni yo'qotib qo'yganim uchun bajara olmadim”, deb ustozini ham aldadi. Ahmadjonga o'xshab hiyla ko'chasiga sira ham qadam tashlamang, doimo to'g'ri so'zlang, to'g'ri ishlang!

Ziyonkorlik qo‘lidagi yaroqli buyum va narsalarni yirtish, irg‘itib tashlash, yoqishdir. Demak, ziyonkorlik yaroqli narsalarni hech narsaga arzimaydigan yaroqsiz holga keltirishdir.

Hakimjonning otasi o‘qishi uchun chiroyli kitob keltirib berdi. Hakimjon bu kitobni kir qildi, yirtdi, rasmlarini qalamlari bilan bo‘yadi. Keyin tashlab yubordi. U bu yaramas qilig‘ini otasidan bekitdi.

Aslo ziyonkor bo‘lmaylik, ota-onalarimiz mehnati tufayli yaratilgan hamma narsalarni asrab, aziz tutaylik, uy-ro‘zg‘or buyumlari, eshik-derazalar, o‘quv qurollarimizga ziyon keltirmaylik. Ayniqsa, tabiatdagi va jamoat joylaridagi buyumlarni ko‘z qorachig‘imizdek asrasak Vatanimiz yanada gullab-yashnaydi. Binobarin, o‘zini hurmat qilgan kishi buyum va narsalarni ham ehtiyot bilan saqlaydi.




1. Zararli xulq va odatlar nima sababdan kelib chiqadi?
2. Qanday xulq-odatlar zararli hisoblanadi?
3. Ahmadjon bilan Hakimjonning ishi to‘g‘rimi? Siz ularning o‘rnida qanday ish tutgan bo‘lar edingiz?



4. Donolar aytgan hikmatlar mazmunini sharhlab bering.
5. Zararli xulq-odatlarga bittadan misol va hikmat toping, ularni daftaringizga yozing.

## O'ZLIKNI ANGLASH

### ISTIQLOL BERGAN BUYUK NE'MATLAR



*Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni hilmasdan turib esa, o'zlikni anglash mumkin emas.*

**Islom Karimov**



Uzoq yillar biz o'zligimizni, ya'ni ota-bobolarimiz aslida qanday odamlar bo'lgan, ulardan qanday allomalar yetishib chiqqan, ularga xos qanday qadriyatlar mavjud edi, bilmasdik. Bunga sabab, uzoq yillar tarixning buzib ko'rsatilganligi bo'ldi. Faqat istiqlol tufayligina haqiqiy tariximiz buloqlarining ko'zi ochildi. Shoir aytganidek:

*Shamol tegib ko'krakka,  
O'zimizni tanidik.  
Malham bo'lgan yurakka  
So'zimizni tanidik.*

Ana shu ko'krakka tekkan shamol qadimiy an'ana, bayram, rasm-rusum, urf-odat, marosimlarimizni tikladi. Ko'p yillar ta'qib ostiga olingan Navro'zni xursandchilik bilan bayram qila boshladik. Ramazon va Qurbon hayiti kabi muqaddas bayramlarimiz dam olish kuni deb belgilandi. Kishilarga mehramuruvvat ko'rsatish, saxovat kabi udumlarimiz yana o'z asliga qaytmoqda.

Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-Farg'oniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abduholiq G'ijduvoni, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur al-Moturidiy kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining muborak nomlari tiklandi. Ularning boy milliy-madaniy va ma'naviy meroslari bilan butun dunyo tanishmoqda. Qadimiy madaniy osori-atiqalarimiz qayta ta'mirlanib, nafaqat yurtimiz, balki xorijiy mamlakatlar xalqlarini ham o'ziga chorlamoqda, rom etmoqda. Mana shularning barchasi o'zbek

xalqi ko'kragini tog'dek etib, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mavjlantirib yuboradi. Endi o'zbek o'zining, ajdodlarining kimligini biladi va o'z qadr-qimmatini jahon tarozusiga bemalol qo'ya oladi.

### O'ZBEK, O'ZBEKISTON!

*Azim Suyun*

*Tarix yozaversam... osmon erur past,  
Bugun istiqlolni kuylagayman, bas,  
Vatanim ertasin buyukligi rost,  
Yurthoshidir sarbon, yo'ldadir karvon,—  
O'zbek, O'zbekiston!*

*Jannatga atalgan yer — o'zbekniki,  
Manglaydan oqqan pok ter — o'zbekniki,  
Tangri farzandlari — er — o'zbekniki,—  
Senikidir Jayxun, Sayxun, Zarafshon,—  
O'zbek, O'zbekiston!*

*Toza otning toza bo'lgaydir zoti,  
“Asl tulpor ekan o'zbekning oti...”  
Muborak, ey, yurtim! Qirq gaz qanotli!  
Kun kelgay, tilingda so'zlagay jahon,—  
O'zbek, O'zbekiston!*

*Uchgan o'qning aqli yo'q erur, ona,  
Osmonning ko'ksiga taqay tug'dona,  
Azim Suyun, madhing kuylaydir yona,  
Zaminu zamonda bo'l mangu omon,—  
O'zbek, O'zbekiston!*





1. Biz o'zligimizni qanday tanidik?

2. Buyuk ajdodlarimizdan kimlarning nomlarini bilib oldingiz?



3. Kimlar milliy-ozodlik harakati fidoyilari ekan, ular haqida nimalarni bilasiz?

4. She'ni o'qing, uning mazmunini so'zlab bering.

## TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI

Temuriylar tarixi Davlat muzeyi 1996-yil 18-oktabrda ochildi. U Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonining shimoli-g'arbiy tomonida barpo etilgan. Muzeyning ochilishida



vatandoshlarimiz vakillari va xorijdan kelgan mehmonlar ishtirok etdilar. Prezidentimiz Islom Karimov bu marosimda nutq soʻzlab, shunday dedi: **“Kimki oʻzbek nomini, oʻzbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qoʻshgan hissasini, shu asosida kelajakka ishonchini anglamoqchi boʻlsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak”**.

Muzeyning tashqi koʻrinishiga alohida eʼtibor berilgan. Salobatli moviy gumbazi, ustunlari unga koʻrk berib turibdi. Bino uch qavatdan iborat boʻlib, birinchi qavatida xazinaxonalar, kutubxona, majlislar zali, chiptaxona, garderob, maʼmuriyat, texnik vositalar uchun xonalar joylashgan.

Ikkinchi qavatdagi eksponatlarda qadim zamonlarga borib taqaluvchi tariximiz asoslari haqida hikoya qilinadi. Devorga ishlangan tasvirda Amir Temur va uning vorislari hayotidan lavhalar berilgan. U yerdagi majlisxonada uchrashuvlar, ekran orqali turli mavzularni yorituvchi koʻrsatuvlar namoyish etiladi.

Uchinchi qavatda Amir Temur va temuriylar tarixi bilan bogʻliq eksponatlar namoyishga qoʻyilgan. Ular meʼmoriy obidalar, kulolchilik, misgarchilik, zargarlik buyumlari, qoʻlyozmalardan iborat. Bu qavatga 3 ta televizion ekran joylashtirilgan boʻlib, unda temuriylar davridan maʼlumot beruvchi filmlar namoyish etib turiladi.

Muzey atrofini oʻttizdan ortiq naqshinkor ustunlar oʻragan. Tepa qismi moviy gumbaz bilan yopilib, naqshlar bilan bezatilgan. Muzey binosi podsholar boshidagi tojni eslatadi.

Markaziy zal tepa qismining shiftiga gullar ishlangan, sakkiz qirrali yulduzlarga sof oltindan jilo berilgan. Pastroqdagi aylana devorga oʻzbek, arab, ingliz tillarida Sohibqironning “Quvvat adolatda”, “Kuch birlikda” kabi hikmatlari bitilgan.

Kiraverishdagi zal devoriga Amir Temur davrini ifodalovchi “Tug‘ilish”, “Yuksalish”, “Meros” deb ataluvchi uch qismdan iborat rasmlar ishlangan.

Muzey eksponatlari yildan yilga ko‘payib bormoqda. Muzeyni tomosha qilgan kishilar ko‘z o‘ngida tengsiz sarkarda, zukko davlat arbobining siymosi gavdalanadi. Chunki bu yerdagi ashyoviy dalillar, tasviriy san‘at asarlari Amir Temur zamoni haqida atroflicha ma‘lumot beradi.

Temuriylar tarixi Davlat muzeyi xalqimiz va chet ellik mehmonlarning sevimli ziyoratgohiga aylandi, desak xato qilmaymiz. Esdalik kitobiga yozib qoldirilayotgan dastxatlar bundan dalolat berib turibdi.



## Muzeyga borish odobi

1. Muzeyga borishdan avval o'zingizni ruhan tayyorlang va u yerdan bilim olishni, o'rganishni oldingizga maqsad qilib qo'ying.

2. Toza kiyimlaringizni kiying hamda orastalikka e'tibor bering, ayniqsa oyoq kiyimingiz toza bo'lsin.

3. Avval muzeyning tashqi ko'rinishini tomosha qiling, keyin eshikdan shoshilmay, agar ko'pchilik bo'lsangiz, bir-biringizni turtmay, navbat bilan shovqin solmay ichkariga kiring.

4. O'qituvchingiz yoki muzey xodimi so'zlarini diqqat bilan tinglang, eslab qolishga harakat qiling. Ularning hikoyasi tugamaguncha, shoshqaloqlik qilib savol bermang.

5. Hikoya tugagach, odob bilan tushunmay qolgan joylaringiz bo'lsa, so'rab oling.

6. Muzey ashyolari yoki devorlariga tegmang.

7. Yoningizdagilar bilan baland ovozda gaplashmang.

8. Muzeyga konfet, pista yoki saqich olib kirmang. Yerga biror narsa tashlamang.

9. Sayohat so'ngida muzey xodimlariga minnatdorlik bildiring.

10. Muzeydan odob bilan chiqib keting.

11. Ko'rgan-eshitganlaringiz haqida mulohaza yuriting. Uni bir umr eslab qolishga harakat qiling.

12. Muzey haqidagi taassurotlaringizni, albatta, oila a'zolaringiz, do'stlaringizga so'zlab bering.



1. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi qachon ochilgan?

2. Muzeyning ochilish marosimida Prezidentimiz Islom Karimovning aytgan gaplarini qanday tushundingiz?



3. Muzeyning ichki tuzilishi qanday ekan?

4. Muzeyning tashqi ko'rinishi haqida gapirib bering.

5. Muzeyga borish odobiga rioya qiling.

## YURT TINCHLIGI

“Tinch elning bog‘i gullar”, deydi xalqimiz. Darhaqiqat, har bir tongni shukronalik bilan qarshi olamiz, bolajonlar bog‘cha va maktablariga, kattalar o‘z yumushlariga xotirjamlik bilan ketadilar. Kunlarimiz tinch, osoyishta o‘tadi, bir piyola choyni bag‘ri butunlik bilan ichamiz. Axir bundan ortiq baxt bormi? Mana shularning barchasi yurtimiz tinchligi tufayli ekanligini ko‘pda o‘ylab ko‘rmaymiz ham. Agar buning aksi bo‘lsa-chi? Bunday kundan Ollohning o‘zi asrasin. Shoir aytganidek:

*Shu dahshatli urushning  
Falokatin eslasang,  
Million-million bolalar  
Halokatin eslasang,  
Eslasang ne-ne arslon —  
Yigitlar zavolini,  
Yurtlar vayronasini,  
Keksalarning zorini,  
Vujuding bilan urush  
Nomidan jirkanasan,  
Tinchlik askari bo‘lib,  
Otlanib tiklanasan.*

Shunday, biz tinchliksevar el farzandlarimiz. Tinchlik tushunchasi, niyati-istagi bizning qon-qonimizga singib ketgan. Keksalarimiz niyati — tinchlik, onalarimiz tilagi — tinchlik, bolalarimizning istagi — tinchlik!

*Urush qilib boyimoq,  
Gazandalar qilmishi.  
Mehnatkash xalq hech qachon  
Istamaydi urushni.  
O'zi qurib, bor qilgan  
Tinch dunyoni buzishni.  
Dunyoda bitsin urush,  
Yer yuzi ko'rmasin dog'.  
Gullasin shirin turmush,  
Tinchlik bo'lsin hammayoq.*

**Quddus Muhammadiy**

Nafaqat yurtimizda, butun dunyoda tinchlik bo'lishini istaymiz. "Tinchlik bo'lsa, yuz millat til topishar", degan maqol bor. Bir mamlakatda bo'lib turgan notinchlik boshqa mamlakatlar tinchligiga ham raxna soladi. Buni qo'shni mamlakat — Afg'oniston misolida ko'rish mumkin. Yigirma yildan ziyod davom etgan o'zaro harbiy mojarolar bu yurtning tinkasini quritdi. Qolaversa, u xavf-xatar o'chog'iga ham aylangandi. Bu yurtimizdagi yaxshi niyatda amalga oshirayotgan ishlarimizga ham tahdid solgandi.

Yurt tinchligi — ulkan boylik. Mustaqil O'zbekistonimizda tinchlik barqarordir. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalardan biri ham — yurt tinchligi. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimovning olib borayotgan dono siyosati katta ahamiyatga ega.

Tinchlik farovonlik yo'ldoshidir.

Yurtimizning gullab-yashnashi, barcha sohalarda qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlarimiz, istiqlol g'oyalarning yuksalib borishi, albatta, tinchlik tufayli. Xalqimizning bunday



yutuqlarini ko'ra olmaydigan kimsalar ham bor. Dinni niqob qilib olgan ana shunday yovuz niyatli kimsalar yurtimiz tinchligini buzishga harakat ham qilib ko'rdilar. Namangan, Farg'ona voqealari, 1999-yil 16-fevral voqealari, 2000-yil avgust-sentabr oylaridagi Surxondaryoning Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi talato'plar, 2005-yil may oyidagi Andijon voqealari ana shunday buzg'unchilarning ishlaridir. Biroq bu voqealar xalqimiz irodasini yanada mustahkamladi, uning bukilmaligini ko'rsatdi, yana ham ogohlikka undadi. Erkka erishgan xalq hech qachon o'z erkini birovga berib qo'ymasligini, ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan ushbu muqaddas zaminimizning har bir qarichini ham ko'z qorachig'imizdek asrashimizni o'sha buzg'unchilar o'z ko'zlari bilan ko'rdilar.

Yuqorida sanab o'tilgan voqealar natijasida o'ndan ziyod yigitlarimiz qurbon bo'ldilar. Ular o'z Vatanining mard, yengilmas, botir o'g'lonlari edi. O'z o'g'lonlarining jasoratini Vatan hech qachon unutmaydi va avlodlar mustaqil O'zbekistonimizni himoya qilishda ular jasoratidan o'rnak oladilar.

Bugun yurtimizning har bir fuqarosi erkimizni, tinchligimizni asrash niyati bilan yashamoqda: novvoylari rizq deb non yopmoqda, shoirlari erk deb g'azal bitmoqda, xonandasi "Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!" deb kuylamoqda. Chindan ham hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!



1. Tinchlik haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?  
2. Yurt tinchligini buzmoqchi bo'lgan kimsalar haqida nima deya olasiz?



3. Tinchlik haqida bilgan she'r, maqollaringizdan aytib bering.  
4. Siz yashayotgan joyda Vatanimizni himoya qilish yo'lida qurbon bo'lganlar bormi? Agar bor bo'lsa, u haqda surishtirib, "Vatanning mard o'g'loni" nomli hikoya yozing.

## MILLATLARARO TOTUVLIK



*Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutuqimiz — bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz tafakkurida bu qadriyatning beqiyos ahamiyatini anglab yetish tuyg'usi tobora yuksalib hormoqda.*

**Islom Karimov**

Kelajagi buyuk O'zbekiston ko'p millatli diyordir. Unda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ular o'zaro ahil, tinch-totuv yashab kelmoqdalar. Bu totuvlik asrlar bo'yi davom etib kelayotgan bo'lib, bunga xalqimizning azaliy bag'ri kengligi, ochiq ko'ngilligi, donoligi sababchidir. Ahillikda hikmat ko'pdir. "Bir kun janjal chiqqan uydan qirq kun baraka ko'tariladi", deydi xalqimiz. Haqiqatan ham shunday. Yurt farovonligi, osoyishtaligi unda yashaydigan insonlarning o'zaro ahilligi, bir-birlariga hurmati, mehr-oqibatidadir. Ana shuning uchun ham millatlararo totuvlik g'oyasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biridir.

Odam qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar, avvalo, u insondir. Uning ham o'z orzu-umidlari, yaxshi niyatlari,

qolaversa, g'ururi bor. Uni boshqa millat vakili sifatida kamsitishga hech kimning haqqi yo'q. Har bir inson ham hayotda umid bilan yashaydi. Mana shu hayotiy haqiqatni bag'rikeng insonlar yaxshi anglaydilar va o'zaro tinch-totuv yashashga intiladilar.

Bir-birlarining insoniy qadriyatlari, marosim va an'analari, bayramlarini hurmat qilish millatlarni birlashtiradi, ezgulik sari yetaklaydi. Bir-birlarining to'y-hasham, xursandchilik kunlarida hamkor, boshga tushgan qayg'uli kunlarida hamdard bo'lib turish diyorimizda yashovchi turli millat vakillariga xos an'anadir.

Hech bir millatning tili, urf-odati, rasm-rusumlari boshqa millatlar tomonidan kamsitilmaydi, aksincha ularga hurmat-e'tibor bilan qaraladi. Yurtimizda yashovchi ko'plab millat vakillarinihg o'z milliy-madaniy markazlari bor. Bir-birlarining san'at-adabiyotiga cheksiz hurmat va muhabbat hissi diyorimiz kishilariga xos fazilatdir. Mehnatdagi hamkorlik ham shular jumlasidandir. Bularning barchasi baxtli yashash omillaridir. Baxt esa hammaga birdek kerak.

Ba'zan millatlar o'rtasidagi totuvlikni ko'rolmaydigan, ularga raxna soluvchi kimsalar ham uchrab turadi. Biroq, bunday kishilar da'vatiga quloq solmaslik, ularga zarba berish, hushyorlikni qo'ldan bermaslik lozim. Ular hech qachon niyatlariga yetmagan va yetolmaydilar ham. Kundan kunga butun dunyoni lol qoldirib borayotgan ko'p millatli yurtimiz — O'zbekiston o'z maqsadi, istiqboli yo'lida olg'a qadam tashlab boraveradi.



1. Diyorimizda qanday millat vakillari yashaydilar?
2. Boshqa millat vakillaridan do'stlaringiz bormi? Ularni ta'riflab bering.
3. Millatlararo totuvlik nima, uning qanday xayrli natijalari bor ekan?



4. Qaysi millatlarning yozuvchi va shoirlarini bilasiz, ular ijodidan namuna keltira olasizmi? Kuy-*qo'shiqlarini-chi*?
5. Boshqa millatlar urf-odatlarini, tadbir va marosimlariga oid kichik hikoya yozing.

## OILA TO'KISLIGI



Qaldirg'och — fayz,  
qut-baraka elchisi

Emishki, qaldirg'ochlar ham xosiyatli xonadonlarga in solishar ekan. Yoki qaldirg'och in solgan xonadon xosiyatli bo'lar emish. Bu ikki bashorat biri ikkinchisini to'ldirishga xizmat qilsa ham, lekin ularning zamirida yotgan haqiqat bitta — u ham bo'lsa, osoyishta, fayzli xonadonni qushlar ham sevadi, unga talpinadi.

Oilaning fayzli, farovon bo'lishi esa, albatta unda yashaydigan kishilar — oila a'zolariga bog'liq. Ular o'zaro hamjihat bo'lib yashasalar, bir maqsadni ko'zlasalar, bu xonadon obod bo'ladi. Tejamkorlik, mehnatning to'g'ri taqsimlanishi, shukronalik bilan yashash oilaga qut-baraka keltiradi.

O'zbekistonda oilaga e'tibor katta, uning farovonligi haqida qayg'urish hukumatimizning asosiy vazifasidir. Prezidentimiz tomonidan "Oila yili", "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Onalar va bolalar yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Mehr-muruvvat yili" va "Sihat-salomatlik yili"ning e'lon qilinishi oilaga bo'lgan cheksiz e'tibor nishonasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kam ta'minlangan oilalarga qaratilayotgan e'tibor ham g'amxo'rlikning bir ko'rinishidir.

Inson o‘z turmushini o‘zi farovon qilishga qodir. Buning uchun unda mehnatga muhabbat, mirishkorlik, ishning ko‘zini topa olish kabi xislatlar bo‘lishi kerak.

## ISHNING KO‘ZI!

*Ibrohim Rahim*

Sobiq mahallamizda Mashrabxon ota ismli nuroniy istiqomat qilardi. Yoshi yuzga borib qolsa ham bozor-o‘charga o‘zi qatnar, qurbiga yarasha xarid qilsa hamki, bozordan bir xurmacha qimiz ola kelishni unutmadi. Kunlardan bir kun u bozordan qilgan xaridlarini ko‘tarib o‘z uyiga kirarkan, hang-mang bo‘ldi, hayronlikdan xurmachasi qo‘lidan tushib chil-chil sindi, qimizi ostona oldida oppoq bo‘lib ko‘lladi.

— Nima qiliq bu, nima qilyapsizlar?— dedi u gulday hovlisining ko‘kragini kavlab, atrofga tuproq otayotgan mardikorlarning oldiga borib.

— O‘g‘lingiz buyurdi, hovuz kavlayapmiz,— dedi ularning biri.

“Bas qilinglar!” — deb buyurdi-da Mashrabxon ota ularni mehmonxonasiga taklif qildi va bir choynak choydan keyin kunbay pulini sanab berib mardikorlarni jo‘natib yubordi. Mardikorlaridan xabar olgani kelgan Fayzixon ham darvozasi oldida hang-mang qoldi. Ostona ostida qimiz ko‘llab yotibdi, tevarak-atrof tuproqqa to‘lgan, hovuz chala yotibdi-yu, mardikorlar ko‘rinmaydi. “Ne hodisa yuz berdi?.. Dadam... Dada!” deganicha ichkariga yugurdi. Dadasi onasi bilan yuzmayuz bo‘lib asabiy holda o‘tirishgan edi.

— Nima bo‘ldi? Mardikorlar qani?

— Haqini berib jo‘natvordim.

— Nega?

— Ishning ko‘zini bilmaganing uchun.

— Birona ishim yoqmaydi sizga. “Ishning ko‘zini bil-maysan”, deganingiz degan. Ishning ko‘zi qanaqa bo‘ladi?.. Uni biron kimsa ko‘rganmi o‘zi?!

Otasi o‘g‘liga hech so‘z qotmadi, ammo ishning ko‘zini amalda ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Ertalab mardikor bozoridan g‘isht quyishga baholashib ikki yigitni boshlab keldi, yo‘l-yo‘lakay bir xurmacha qimiz olib kelishni unutmadi.

— G‘ishtni mana shu tuproqdan quyasizlar,— dedi u g‘ishtchilarga hovlida sochilib yotgan tuproqni ko‘rsatib.— Bular tamom bo‘lgach, tuproqni shu chuqurlikdan kavlab olasiz. Aytib qo‘yay, chuqurlikning bo‘yi uch metr, eni uch gaz... Tekis va soz bo‘lsin. Quyilgan g‘ishtni ko‘chadagi yo‘lakchaga terasiz.

G‘isht quyuvchi mardikorlar ikki kunda uch metrlik chuqurlikdan uch mingta xom g‘isht quydilar. Mo‘ljaldagi ish bitgach, oqsoqol mardikorlarni rozi qilib yubordi. Hovlida hovuz paydo bo‘ldi, tuprog‘idan quyilgan xom g‘ishtni qo‘shnilar naqd pulga sotib oldilar.

Ertasiga otasi odatdagiday xurmacha ko‘tarib qimiz bozoriga yo‘l olganidan keyin o‘g‘il hovliga chiqdi. Top-toza hovli, tayyor hovuzga qarab o‘ylanib qoldi. Qiziq, shuncha ish tekinga tushdi...

Qimiz ko‘tarib bozordan qaytgan otasi o‘g‘lini hovlidagi yangi qazilgan hovuzcha oldida uchratib, xurmachasini yerga qo‘ydi-da, o‘g‘lining oldiga keldi.

— Hovuzcha qalay bo‘pti?

— Aytganimdan ziyoda bo‘pti, dada. Qizig‘i shundaki, shuncha ishni tekinga tushirdingiz. Pulimiz yonimizda qoldi.

— Sezganlaring shu xolosmi?

— Boshqa tomonlarini ham sezib turibman. Bir kesak bilan ikki quyonni urdingiz. Hovuzdan chiqqan tuproq g‘ishtidan qo‘shimcha yuz ellik so‘m sof foyda oldingiz...



**Oila — muqaddas dargoh, oila — ulugʻ qadriyat. Baxtli oilalar mamlakat boyligi.  
Shukurkim, yurtimizda bunday oilalar kam emas.**

Otaxon xulosa chiqarganday oʻgʻliga dedi:

— Hali ham nodon ekansan, eng asosiy mulkni koʻrma-  
yapsan. Men senga ishning koʻzini koʻrsatdim. Sen koʻr-koʻrona

ish qilayotgan eding. Bir ishni uch ish qilarding. Mardikoring hovlini tuproqqa bostirardi. Keyin mardikor solib hovlidagi uyilmani ko'chaga tashittirarding. So'ngra mashina kira qilib ko'chadagi ag'darmani gumdon qilarding. Hammasi ovora-garchilik, hammasi bir quchoq pulga tushardi. Yaxshiroq qara, ishning ko'zini ko'rib ol, harna qilsang, ko'zini bilib qil. Ishning ko'zi ana shu!

Ana shunday. "Qari bilganni – pari bilmas", deydi xalqimiz. Oilalarimizda keksalarimizning bori yaxshi, iloho umrlari uzoq bo'lsin. Ular bizga doimo maslahatgo'y, dono ustozdirlar. Ular bor xonadonlarning fayzi ham bo'lakcha, qut-barakasi, farovonligi ham balanddir. Biroq, shunday oilalar borki, unda muvozanat buzilgan, ya'ni bu xonadondan iymon, vijdon ketgan (ular jamiyatimizda oz bo'lsa-da, uchrab turadi). Bunday xonadonlarning keksalari "Qariyalar uyi"ga borib yashamoqdalar. U yerdagi shart-sharoitlar yaxshi, lekin hech qachon oilaning o'rnini bosa olmaydi. Bu yerda qariyalar qanchalar mehr-muruvvat ko'rganlari bilan, baribir, ularning ko'ngillari o'ksik, oilasini qo'msaydi. Ana shunday ko'ngli vayronalik keksayganda hech kimning boshiga tushmasin. O'sib, voyaga yetayotgan farzandlarimiz iymon, e'tiqodli bo'lsinlar.



1. Oila farovonligi, deganda nimani tushundingiz?
2. Oilada farovonlikni ta'minlash uchun nimalar qilish kerak?
3. "Ishning ko'zi" hikoyasi haqida qanday tasavvurga ega bo'ldingiz? Nima deb o'ylaysiz, siz ishning ko'zini bilasizmi?



4. Buvi-bobo, ota-onalaringizdan "ishning ko'zi" haqida so'rab, bilganlaringizni yozib keling.
5. Keksalarga munosabatingiz haqida so'zlab bering.



## “AVESTO” — G‘URURIMIZ

### MO‘TABAR QADIMIY QO‘LYOZMA



*Eng mo‘tabar qadimiy qo‘lyozmalardan biri “Avesto”dir. “Avesto”ning yaratilganiga 3000 yil bo‘layapti. Bu nodir kitob bundan o‘ttiz asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma‘naviy, tarixiy merosidir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma‘naviyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir-ki, uni hech kim inkor etolmaydi.*

**Islom Karimov**

Zardushtiylik dinining asoschisi bo‘lmish Zardusht buyuk tarixiy shaxsdir. U Xorazmda yashab, chorvachilik bilan shug‘ullangan dono, odobli va o‘ta donishmand kishi bo‘lgan. Xalq qahramoni Spitamen ham uning urug‘idandir. Zardusht bolaligidan tuya boqish bilan shug‘ullangan. U zukko bola bo‘lganligi sababli, o‘z qabilasining urf-odatlarini, diniy udumlarini o‘rgangan. Qadimda ota-bobolarimiz turli dinga, ko‘p xudolarga sig‘inar, ularga bog‘liq rasm-rusumlarni bajarardilar. Ana shu rasm-rusumlardan biri o‘z xudosi qurbonlik qilish edi. Zardusht qurbonliklar tufayli mollarning kamayib, qirilib ketayotganini ko‘rib aziyat chekadi.

Zardusht ko‘p xudolilikning zararini to‘la tushunib yetadi va yigirma yoshida o‘zining nor (sariq) tuyasiga minib qishloqmaqishloq, shaharma-shahar yurib yakka xudolikni targ‘ib qiladi.

O‘n yildan keyin yagona xudo — Ahuramazdani targ‘ib etadi. Bundan ko‘zlangan maqsad — yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat o‘rtasidagi doimiy kurash hamda adolat, odob, urf-odat va an‘analar haqidagi ta‘limotni yaratish edi. Zardushtning yaxshi orzu-istaklari tufayli “Avesto” kitobi yaratildi.

“Avesto” sof diniy kitob bo‘lmay, unda ilm-fan, madaniyat, odob-axloq haqida ham qimmatli ta‘limotlar berilgan. “Avesto” zardushtiylilikning muqaddas kitobi bo‘lishi bilan birga ilm, fan, hayotiy voqealar, marosimlar, urf-odatlar, e‘tiqod, ibodat, qiroat qiladigan oyatlar, qo‘shiqlar haqida ham ma‘lumot beruvchi, insonlarni yaxshilikka yetaklovchi kitob bo‘lib, u buyuk ma‘naviy merosimizdir.

“Avesto” 21 kitobdan iborat.

“Avesto” kitobi inson salomatligi uchun tabiatni toza saqlash, oilada onalarning o‘rni va huquqlari, jamiyatdagi urf-odatlar haqida ham keng bilim beruvchi ma‘naviyat xazinasidir.

Insonlarni ma‘naviy yuksaklikka yetaklovchi “Avesto” kitobining yaratilganligiga 2700 yil to‘ldi. Yurtboshimizning tashabbusi bilan “Avesto”ning 2700 yilligini nishonlash borasida farmon qabul qilindi va keng nishonlandi.

### ***“Avesto”dagi axloq-odobga doir hikmatlardan namunalar***

*Har bir inson o‘zi o‘sib-ulg‘aygan zamini — mamlakatini eng yaxshi va go‘zal mamlakat deb tushunmog‘i kerak.*

\* \* \*

*Inson butun umri davomida suv, olov, tuproq, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir.*

\* \* \*

*Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan noz-ne'matlar yaratishi lozim.*

\* \* \*

*Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatan ham tilanchilar qatorida o'tasan.*

\* \* \*

*Sukut — eng buyuk odob.*

\* \* \*

*Vatanning tutuni ham shirin.*



1. "Avesto" qanday kitob?
2. "Avesto" kim tomonidan yaratildi?
3. Zardushtiylik qanday din?



4. "Avesto" kitobidan olingan axloq-odobga oid hikmatlarni yod oling.

## **DA'VAT: EZGU FIKR, EZGU SO'Z, EZGU ISH**

"Avesto" kitobida inson odobining asosi ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ishda ekanligi ifoda etiladi.

Ezgulik — yaxshilik demakdir.

Yaxshi ishlar haqida fikrlash, uni yaxshi soʻzlar bilan bayon etish insonga shon-shuhrat va baxt keltiradi. Zardusht insonlarni ahil, totuv, oʻz birodarlari bilan doʻst boʻlib yashashga chorlaydi. “Avesto”da ezgu niyatli kishi gʻazablanmaydi, xayolida ham boshqalarga hasad qilmaydi, nomaʼqul ishlarga berilmaydi, deb insonlarni yaxshi niyatli boʻlishga chaqiradi.

“Avesto” kitobida yaxshilik deganda har bir inson quyidagi qoidalarga amal qilishi lozimligi bayon etiladi: Vaʼdaga vafo qilish, savdo ishlarida halol boʻlish, oʻgʻrilik, tilanchilik qilmaslik, oʻzgalarning molini tekin oʻzlashtirmaslik kabilar.

Yaxshilikning teskarisi yovuzlik, yaʼni yomonlikdir. “Avesto”da koʻproq tabiat va hayvonlarni parvarish qilish va asrashda yomon ishlardan saqlanish ezgulik boʻlsa, ularni kaltaklash, qiynash, oʻz vaqtida ovqat bermaslik, yirtqich hayvonlardan himoya qilmaslik yovuzlik ekanligi koʻrsatiladi.

“Avesto” kitobida insonlarni doimo yaxshilikka chaqiruvchi odob-axloqqa doir pand-nasihatlar ham berilgan.



## *Zardusht nasihatlari*

*Tug'ilgandek pok bo'lmoq tiriklikda buyuk ishdir. Dunyoni obod etmoq uni yaxshilik bilan asramoq va ezgulik sari eltmoq kerak.*

\* \* \*

*Hozir yomonlik va yaxshilik o'rtasida ikkilanib turgan kishi qiyomat kunida yaxshilik uchun ham, yomonlik uchun ham javob beradi.*

\* \* \*

*Bordi-yu inson hayoti ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ishlar bilan o'tgan bo'lsa, u abadul-abad farog'atda yashaydi.*

\* \* \*

*Kimki itni ursa hayoti qiyinchilikda o'tadi. Agar it och bo'lsa, uni ovqatlantirish kerak. Itni urgan, haqorat qilgan kishilar abadiy baxtsizlikka duchor bo'ladi. Itlar eng sadoqatli qo'riqchilardir.*

\* \* \*

*Keksalar gapiga quloq soling va andisha bilan mulohaza yuritib, yaxshi bilan yomonni o'zingiz ajratib oling.*

\* \* \*

*Haqiqat — eng oliy ne'mat.*



1. Ezgulik nima?  
2. Inson ezgu, ya'ni yaxshi ishlarni qilganda nimalarga erishadi?



3. Ezgulik — yaxshilikning asosiy qoidalari nimalar ekan?  
4. Siz hayotingizda qanday yaxshi ishlarni qilgansiz?  
5. Zardusht nasihatlarini yod oling.

### BOBOLARIMIZ, MOMOLARIMIZ KUYLAGAN QO'SHIQLAR

Qo'shiq inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi muhim ma'naviy ozuqadir. "Qo'shiq" atamasi turkiy "qo'shmoq" fe'lining o'zagidan yasalgan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylashni, aytish ma'nolarini anglatadi. Qo'shiq mazmuni, aytilish o'rni, usuli va vazifasiga qarab ham turlarga bo'linadi. Masalan, mehnat qilish paytida, ishlayotganlar tomonidan ijro etilib, mazmunan mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, bunday qo'shiqlar **mehnat qo'shiqlari** deyiladi.

Yoki insonning ko'ngil kechinmalari ifodalansa, unday qo'shiqlar **lirik qo'shiqlar** deyiladi.

Xalq qo'shiqlarida mehnatkash xalqning ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi aks etadi.

Qo'shiqlar kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnat-sevarlik va elparvarlikka, vatanparvarlik va do'stlikka, sadoqatga chaqiradi. Inson hayoti davomida qo'shiqning o'rni juda katta. U kishi qalbini yumshatadi, ezgu ishlar sari yetaklaydi, ba'zan ayrim muammolar yechilishiga ham sabab bo'ladi. Qo'shiq ta'sirida sog'lig'i yaxshilangan bemorlar ham ko'plab topiladi. Shuning uchun ham bobo-momolarimiz qo'shiqni qadrlaganlar va asrlar osha avlodlarga meros qilib qoldirganlar.

O'zbek xalqining dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlari mavjud bo'lib, ular o'ta qadimiyligi bilan qimmatlidir.

Don yanchishda:

*Mayda-mayda, mayda qil, maydayo-mayda,  
Qopda turgan unday qil, maydayo-mayda.  
Bul maydani bo'lgan so'ng, maydayo-mayda,  
O'tli, suvli soyda bo'l, maydayo-mayda.*

*Maydalar qil, ko'raylik, maydayo-mayda,  
Shoxingga gul taqaylik, maydayo-mayda.  
Shoxingdagi gullarni, maydayo-mayda,  
Yaxshilikda ko'raylik, maydayo-mayda.*


Yoki qo'y sog'ishda:

*Esli molim-oqilim, turey-turey,  
Yelkamdagi kokilim, turey-turey.  
Shuncha molning ichida, turey-turey,  
Bog'da ochilgan gulim, turey-turey.*

O'zbeklar orasida gilam, sholcha to'qish keng tarqalgan bo'lib, ana shu mehnat jarayonida quyidagicha qo'shiqlar aytilgan:

*O'rmagimni to'qiyman,  
Kecha-kunduz to'qiyman.  
Qachon tamom bo'ladi,  
Deb ashula to'qiyman.*

Keyinchalik xalq qo'shiqlari musiqa asboblari jo'rligida kuylana boshlangan. Qo'shiqlarning kuylar jo'rligida ijro etilishi unga alohida joziba bag'ishlaydi va tinglovchiga ta'siri kuchliroq bo'ladi. O'zbek milliy musiqa asboblari qatoriga dutor, rubob, nay, g'ijjak, doira kabilar kiradi.



**Dutor** — chertma torli xalq cholgʻu asbobi. Oʻrta Osiyo va Sharqiy Turkistonda keng tarqalgan. Asosan tut yogʻochidan yasaladi. Hozirda oʻrik, yongʻoq yogʻochlaridan ham ishlanmoqda. Xalq orasida “Toʻrgʻay”, “Fargʻonacha”, “Tanovar”, “Rohat”, “Munojot”, “Jigarpora”, “Suvora”, “Dilxiroj”, “Chertmak”, “Shafoat”, “Qoʻshtor” kabi maxsus dutor kuylari yaratilgan.

**Rubob** — torli cholgʻu asbobi. Noxun (mediator) bilan chertib chalinadi. Sharq xalqlari: oʻzbek, tojik, uygʻurlar orasida keng tarqalgan. Asosan uch xili mavjud: qashqar rubobi, afgʻon rubobi va pomir rubobi.

**Nay** — puflab chalinadigan musiqa asbobi. Sharq va Oʻrta Osiyo xalqlarida keng tarqalgan. Nay boʻylamasiga va yonlamasiga ushlab chalinadigan turlarga boʻlinadi. Nayning eng qadimgi turi choʻpon nayidir. U boʻylamasiga chalinadi. Sozandalar oʻrtasida koʻproq yonlamasiga ushlab chalinadigan naylar tarqalgan.

**Gʻijjak** — torli, kamonli soz. Oʻzbek, tojik, turkman, uygʻurlarda keng tarqalgan.

**Doira** (childirma, chirmanda) — oʻzbek, tojik, uygʻur va boshqa Sharq xalqlarining zarb-usul sozi. Gardishi tok zangidan, yongʻoq, oʻrik yogʻochidan yasaladi, gardishi ustidan bir tomonlama teri qoplanadi. Ich tomoniga halqachalar osiladi.



1. “Qoʻshiq” soʻzining maʼnosi nima ekan?
2. Qoʻshiqning inson hayotida qanday ahamiyati bor?
3. Qoʻshiqning qanday turlarini bilib oldingiz?
4. Mustaqillik davrida yaratilgan ona tabiat, Vatanni ardoqlovchi qanday qoʻshiqlarni bilasiz?





5. Musiqa asboblari haqida bilganlaringizni soʻzlab bering.
6. Qoʻshiq tinglaganingizda nimalarni his etasiz, shular haqida daftaringizga yozing.

## SAN'ATKOR — QALB CHIROG'I

Yurtimizda xalq e'tiborini qozongan, uning qalb to'ridan joy olgan san'atkorlar juda ko'p. Biri qo'shiqchilik sohasida shuhrat qozongan bo'lsa, boshqa birlari raqs san'ati bilan e'tibor topgan, yana birlari opera va balet yulduzi bo'lsa, yana boshqa biri dramatik yoki kinoaktyor sifatida o'zini namoyon etgandir. Xalqimizning ularga mehri bo'lakcha. Chunki xalq san'atkordan, uning san'ati sehridan kuch, ma'naviy ozuqa oladi. Shuning uchun ham xalq orasida "San'atkor — qalb chirog'i" degan ibora yuradi.

Xalq e'tirofini topgan san'atkorlarimizdan Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Abror Hidoyatov, Soyib Xo'jayev, Komiljon Otaniyozov, Yunus Rajabiy, Halima Nosirova, Botir Zokirov, Olim Xo'jayev, Sora Eshonto'rayeva, Hamza Umarov kabilarning nomlarini iftixor bilan tilga olamiz. Ulardan ayrimlari bilan tanishing.

**Yunus Rajabiy** (1897—1976) — bastakor, xonanda va sozanda, o'zbek xalq musiqasi merosini to'plovchi, akademik, xalq artisti.

Yunus Rajabiy ko'plab kuy, ashulalar, xor asarlari muallifi. U bir qancha qadimgi o'zbek kuy va ashulalarini tiklagan. Yunus Rajabiyning o'zbek musiqasi merosini to'plashdagi xizmatlari katta. "Shashmaqom" ning 6 jildlik yangi nashrini tayyorlagan alomadir.



Yunus Rajabiy



**Tamaraxonim**

**Tamaraxonim** (Tamara Artyomovna Petrosyan, 1906—1991) — atoqli o‘zbek raqqosasi, xonanda va baletmeyster, xalq artisti, millati arman. Tamaraxonim xalqchil lapar va raqslarning mohir ijrochisi edi. U raqqosa, qo‘shiqchi va drama artisti sifatida o‘zbek san‘atini rivojlantirish uchun ulkan hissa qo‘shdi. Uning ijrochilik uslubi o‘ziga xos edi. Tamaraxonim qaysi xalq qo‘shig‘i yoki raqsini ijro etmoqchi bo‘lsa, o‘sha xalqning tarixi, urf-odatlarini, san‘ati, madaniyatini atroflicha o‘rgangan va ular milliyligini ifodalashga harakat qilgan. Urush yillarida (1941—1945) konsert guruhlarini bilan armiya qismlarida xizmat qildi, harbiy unvoni — kapitan.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘zbek san‘atini namoyish etgan. Uning xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan.

**Halima Nosirova (1913—2003)** — xonanda, o‘zbek vokal san‘atining yirik namoyandasi, opera solistkasi, xalq artisti. Ko‘plab spektakllarda bosh rollarni ijro etdi. H. Nosirova o‘zbek opera ijrochiligining yuzaga kelishiga munosib hissa qo‘shgandir.

Halima Nosirova o‘zbek mumtoz qo‘shiqchilarining ham mahoratli ijrochisidir, ham o‘zbek san‘atini butun dunyoga ko‘z-ko‘z etgan san‘atkordir. Uning xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan.



**Halima Nosirova**

### *Nazariy ma‘lumot*

**Balet** — teatr san‘ati turlaridan biri. Raqsqa asoslangan musiqali-dramatik sahna asari.

**Drama** — grekcha “harakat” ma’nosini anglatadi. Drama-ning o’ziga xos xususiyati uning sahnada ijro etilishidir. Agar dramatik asar sahnada qo’yilmasa, tomoshabin uning harakat va holatini kuzatib, so’zlarini tinglamas ekan, u haqiqiy badiiy asar darajasiga ko’tarila olmaydi. San’atning bu turi aktyorlarning mahorati, bezaklarning aniqligi, musiqa va yorug’likning me’yori jihatidan ham o’ziga xoslik kasb etadi.

**Opera** — teatr san’ati turlaridan biri. Musiqa, raqs va tasviriy san’at (jihozlash) o’zaro uzviy bog’langan musiqali dramatik asar.



1. Nima uchun “San’atkor — qalb chirog’i” deyilar ekan?
2. O’zingiz yoqtirgan san’atkor haqida nimalarni bilasiz?
3. Balet, drama, opera haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Qanday balet, opera, dramatik asarlarni bilasiz? Ularni tomosha qilishga borganmisiz? Bunday joylarda kishi o’zini qanday tutishi lozim?
5. Xalq e’zozlagan san’atkorlar haqida so’zlab bering.
6. San’atkor hayotini qanday tasavvur etasiz? Shu haqda yozib keling.



## MUSIQA TINGLASHNI BILASIZMI?

Musiqaning inson hayotida tutgan o’rni beqiyos deb aytdik. Darhaqiqat, musiqani sevgan, uni ardoqlagan kishilardan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Chunki ularning ko’ngli ezgulikka moyil bo’ladi. Tasavvur qiling, kayfiyatingiz yomon bo’lib turgan payt bir dilrabo kuy taralsa, ko’nglingizdagi g’ubor tarqalib, vaqtingiz chog’ bo’ladi. Musiqa ta’sirida qalbingizning tub-tubida yotgan his-tuyg’ular jonlanib, to’lqinlanib ketasiz, beixtiyor kayfiyatingiz ko’tariladi.

Musiqa insondagi eng noyob, eng muqaddas tuyg'ularni ro'yobga chiqarish, tarbiyalash xususiyatiga ega. Ana shunday qudrati, sehri bor musiqaning.

Musiqa tinglashning ham o'ziga xos odobi bor. Keksa, yoshi ulug' kishilarimizning musiqa tinglashlariga hech e'tibor berganmisiz? Ular kuy sehriga sel bo'lib, ko'zlarini ham yumgan holda, ohista tebranib tinglaydilar. Nega shunday? Chunki ular shinavanda. Borliqni unutadilar. Ko'zlarini yumib olishlarining sababi ham butun vujudlari bilan kuyga, ashulaga berilib ketishlari, dunyoda ikki narsa: o'zlari va musiqa bordek, faqat musiqa bilan tillashayotgandek tuyg'u bor unday kishilarda.

Uning yana bir sababi esa musiqaga, san'atkorga bo'lgan muhabbati, cheksiz hurmatidir. Biz ota-bobolarimizdan bu borada ham ibrat olishimiz kerak. Buning uchun kuyni yurakdan his eta bilishni o'rganishimiz lozim. Buning zamirida esa musiqaga mehr qo'yish yotadi. Musiqaga mehr qo'ygan kishi uning qadriga ham yetadi.

Musiqani jim o'tirib tinglash kerak. Gaplashish yoki luqma tashlash, qichqirish odobdan emas. San'atkor hamda atrofdagi kishilar hurmatini saqlash lozim.

To'y-hasham, mehmondorchiliklarda musiqa tinglaganda, ovqatga berilib ketmaslik kerak. Chapillatib yeyish, xo'rillatib choy ichish bunday holatda juda xunuk ko'rinadi.

Konsertlarga borganda shovqin solib, hushtak chalish odati ham o'ta odobsizlik sanaladi.

Xonadonlarda musiqa tinglaganda, baland ovozda qo'yib, qo'shnilar oromini buzmaslik kerak. Chunki birovga yoqqan musiqa ikkinchi odamga yoqmasligi yoki kasal odamlar

halovatini buzib qo'yish mumkin. Yaqin atrofda azali xonadonlar bo'lsa, ularga ham malol keladi.

Ayrim yoshlar bor, ko'chalarda magnitofon ovozini baland qo'yib, qo'shiq tinglab yurishadi. Mana bu odat o'ta madaniyatsizlik hisoblanadi. Bundaylar, avvalo o'zini, qolaversa, atrofdagilarni hurmat qilmagan kishilardir.

O'zbek milliy musiqasi o'ziga xosligi bilan dunyo san'ati orasida ajralib turadi. U istagan kishini o'ziga rom eta olish qudratiga ega. Buni o'zbek milliy musiqasini chet ellarga olib chiqib, u yerliklarni o'z san'atlariga maftun eta olgan ko'plab san'atkorlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin. Ana shunday qo'shiqchilardan biri Munojot Yo'lchiyevadir. Uning qo'shiqlarini xorijdagi muxlislar ham churq etmasdan tinglaganlarini ko'rib lol qolasan kishi. Musiqa tinglash madaniyati ana shunday bo'lishi kerak.



1. Nima uchun keksalar musiqani butun vujudi bilan tinglaydilar?

2. Musiqa tinglash odobi haqida nimalarni bilasiz?

3. O'zingizda musiqa tinglash madaniyatini tarkib toptira olganmisiz?



4. Oilangizdagilarning musiqaga munosabatlari haqida yozib keling.

5. "Shashmaqom" turkumiga kirgan mumtoz qo'shiqlarimizdan birini tinglang.

### ABU RAYHON BERUNIY



**Abu Rayhon Beruniy** 973-yilning 4-sentabrida Xorazmning Kot shahrida dunyoga keldi. U dastlabki ta'limni ona shahrida oladi. Yoshligidanoq aniq fanlarga, til o'rganishga qiziqadi. Beruniy arifmetika, fizika, tabiat, kimyo fanlarini, hind, yunon, qadimgi xorazm tillarini o'rganadi.

Abu Rayhon Beruniy ko'pgina asarlar yaratdi. U "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida o'ziga ma'lum xalqlarning urf-odatlarini, yashash tarzlarini, taqvimini ko'rsatdi.

"Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Saydana" singari asarlar ham ulug' alloma ijodining mahsulidir.

Abu Rayhon Beruniy shoh huzurida katta obro'-e'tiborga ega bo'lsa ham izlanish va ijod qilishdan charchamas edi. U boylik haqida o'ylamas, kamtarona hayot kechirardi. Beruniy 152 ta asar yozgan. Shundan bor-yo'g'i 30 tasi bizgacha yetib kelgan. "Hindiston" kitobi esa, hind xalqining qadimgi madaniyati, tarixi, tabiatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Rayhon Beruniy Sharqda birinchi bo'lib yer shari xaritasini tuzgan. Keyinchalik bu an'anani Ulug'bek davom ettirgan.

## *Alloma hikmatlaridan*

*Kishi ko'ngli tartibli va kelishgan narsalarga moyil bo'ladi.  
Tartibsiz narsalardan nafratlanadi.*

\* \* \*

*Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir.*

\* \* \*

*Bilimsiz kishining ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi.*

\* \* \*

*Bilim shunday narsaki, u yalang'och bo'lg'oningda ham  
o'zingda qoladi. Hammomga kirsang ham suv bilan yuvib  
bo'lmaydi.*

\* \* \*

*Yaxshilik jamiki odamlarga yaxshilik qilmoqdan iborat.*

## BERUNIYNING DAM OLISH KUNLARI

Beruniy yiliga ikki martagina dam olar ekan. Birinchisi Navro'z kunida, ikkinchisi bug'doyga birinchi o'roq tushganda.

Dillarni xushnud etib Navro'zi olam yetib kelgan kuni Beruniy erta tongdanoq o'rinlaridan turib, yuvinib-taranib, ohorli liboslarini kiyib qarindosh-urug'larini, so'ngra yor-u birodarlarini ziyorat qilib, holidan xabar olardi. Keyin ular bilan birga bo'lib suhbatlashish, hazil-mutoyiba bilan dilni chog'lash allomaga zavq-shavq bag'ishlardi. U "dam olib, hayot lazzatini totib ko'rmoqdaman", deb ta'kidlab qo'yar ekan.

Beruniy dalaga urug' sochishda ham ishtirok qilganlar.

Bug'doyzorda hosil pishib yetilgach, ul zot dehqoncha libos kiyib olib, qo'llariga o'roq tutib, azondan to kechgacha bug'doy o'rishdan charchamas, o'tgan-ketganlar "Hormang" deganda. "Bor bo'ling" deb javob berar ekanlar. Qarang-a, ulug' alloma va ustoz kitob mutolaasi va ijod qilishdan ikki kun vaqt ajratib, dalaga shoshilishlarida katta hikmat yashiringan.

Beruniy bobomiz: "Bir daqiqa vaqtni behuda o'tkazganim — halok bo'lganim", deganlarida ming karra haqdirlar.



1. Beruniy qayerda tug'ilgan va qanday asarlar yozgan?

2. Beruniy nechta asar yozgan?

3. Beruniy qaysi kunlari va qanday dam olar ekan?



4. Siz dam olish kunlarini qanday o'tkazasiz?

5. Alloma hikmatlarini yod oling.

## ABU ALI IBN SINO



**Abu Ali ibn Sino** 980-yilning avgustida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Abdulloh mahalliy hukumat xizmatchisi edi. U besh yoshidan ta'lim oldi. Ibn Sino inson tanasidagi turli kasalliklarning kelib chiqishi va boshqa fanlarga doir 150 ta asar yozdi. "Tib qonunlari", "Donishnoma", "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi", "Qush" kabilar shular jumlasiga kiradi.

Bu asarlarda inson salomatligini saqlash bilan bog'liq amallar haqida



soʻz yuritiladi. Kishi oʻz sogʻligini asrash uchun nima qilishi kerak? Zararli odatlarning sogʻlikka taʼsiri qanday? Buyuk tabib faqat shular xususida oʻylar, oʻrganar edi.

Ulugʻ olim va tabibning nodir asarlari biz uchun hamisha aziz va moʻtabardir.

### *Ibn Sino hikmatlari*

*Yoshlikni gʻanimat bil.*

\* \* \*

*Ota-onani gʻanimat tut.*

\* \* \*

*Ustozni otangdan aziz deb bil.*

\* \* \*

*Oz yeyish va oz gapirishni odat qil.*

\* \* \*

*Faqat oʻzingni oʻylama.*

\* \* \*

*Soʻzni isboti bilan gapir.*

### UZUK \* VOQEASI

#### *Ibn Sino haqida rivoyat*

Ibn Sinoni onasi chaqaloqligida choʻmiltirayotib, qimmatbaho uzugini yoʻqotib qoʻygan ekan. U uzugini koʻp qidiribdi, lekin hech qayerdan topa olmabdi. Keyin kanizak olgan deb gumon qilishib, bechorani rosa kaltaklashibdi. Shunda chaqaloq

yig'lay boshlabdi, kaltaklashdan to'xtashsa, chaqaloq ham yig'idan to'xtabdi. Bu noxush voqea ovoza bo'lib ketibdi.

Bola sal ulg'ayib, tilga kirganda shunday debdi:

— Sizlar o'sha vaqtda kanizakni nohaq urgan edinglar. Onam meni cho'miltirayotganda, uzugi tog'oraga tushib ketgan edi. U tog'orani ag'darganda uzuk ham suv bilan birga kir o'raga tushib ketgan.

Mening tilim chiqmaganidan, sizlarga buni aytolmagandim. Kanizakni urganinglarda yig'lab, to'xtaganlaringda yig'ini bas qilishimning sababi shu edi.

Shundan keyin o'rani kavlashgan ekan, uzuk topilibdi.

Bu rivoyat Ibn Sino zehning naqadar yuksakligidan dalolatdir.



1. Ibn Sino qayerda tug'ilgan va qanday asarlar yozgan?
2. Uning asarlari asosan qaysi sohani qamrab olgan?
3. "Uzuk voqeasi"da Ibn Sino kanizakni nohaq jazodan qanday himoya qildi?



4. Ibn Sino hikmatlarini yod oling.
5. Ibn Sino haqidagi rivoyatlardan birini topib, daftaringizga ko'chiring.

## ABDULLA AVLONIY

**Abdulla Avloniy** 1878-yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmand-to'quvchi edi. U butun qiyinchilikni bo'yniga olib, o'g'lini savodli qilishga jazm etdi. Abdulla 8 yoshga to'lganida, otasi uni O'qchidagi eski maktabga yetaklab bordi. Abdulla 12

yoshda uni bitirib, madrasalardan biriga o‘tdi. Ammo tirikchilikning og‘irlashuvi o‘qishga imkon bermay qo‘ydi. “1891-yildan boshlab faqat qish kunlarida o‘qub, boshqa fasllarda mardikor ishladim”,— deb yozadi adib o‘z tarjimai holida. Ko‘p o‘tmay bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho‘ng‘ib ketdi. O‘zi aytganidek, “...binokor (imorat) ustaligini” o‘rgandi. G‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldi.



Abdulla Avloniy bolalar uchun: “Hijron so‘zi”, “Kuz”, “Tog‘lardan bir manzara”, “Yolg‘onchi cho‘pon” kabi ko‘plab she‘rlarni yozgan edi. Shu bilan bir qatorda odob-axloqlar jamlamasi — “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobini bizga meros qoldirdi.

Abdulla Avloniy yoshlar tarbiyasiga alohida e‘tibor bergan. O‘zi yozgan asarlar asosida bolalarni o‘qitdi, muallimlik qildi. “Savod alifbedan boshlanadi...”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi kitoblari bilan minglab bolalarning savodini chiqardi.

Diyorimizda yirik tarbiyashunos, ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy nomi abadiylashtirilgan. Uning hayoti va faoliyatini hikoya qiluvchi muzey bor. Ko‘cha, maktablarga Abdulla Avloniy nomi berilgan. Shuningdek, Toshkentdagi Xalq ta‘limi rahbar xodimlari malakasini oshirish markaziy instituti Abdulla Avloniy nomi bilan ataladi.

## ITTIFOQ

Jonivorlar ichinda eng kichiklari chumolidur. Lekin o'zlari kichik bo'lsalar ham nihoyatda g'ayratlik, ittifoq hayvondur. O'zlaricha podshohlari, kattalari, askarlari bo'ludur. Ulug'lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g'ayratlari soyasinda o'zlaridan katta-katta dushmanlardan qo'rqmaslar. Agar ari kabi dushman kelub, birlariga tegsa, hamma-hammalari birdan yopushub, biri qo'lini, biri ayog'ini, biri qanotini qattiq tishlab, o'zlaridan bir necha barobar katta bo'lsa ham tezgina qochururlar.

*Ko'rdingmi, jun o'zi xo'h maydadur,  
Birlashub arqon bo'lsa, fil boylanur.  
Ittifoqa kuch-quvvat kor aylamas,  
Ittifoqa jin ham ozor aylamas.*

## YAMONLIQ JAZOSI

Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor edi. Ota-yu onasining so'ziga kirmasdan har xil yamon ishlarni qilur erdi. Bolalar birla urushib, yaqolashub, kiyimlarini yirtub kelar erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegan vaqtda, onasi: "Qosim, o'g'lim! Taomni sen yedingmu?" desa, "Men yegonim yo'q, mushuk yegondur", der edi. Bora-bora otasini pulini ham o'g'urlab oladurg'on bo'ldi. Otasi bilib: "O'g'lim, pulni kim oldi?" desa, "Onam olgandur", deb onasini o'g'ri qilur erdi. Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga pul qo'yub, o'zi uxlagan kishi bo'lub yotdi. Qosim kelub, sekin tangani olib og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab qolmoqchi bo'lg'onda

tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumiga tiqilib, jon berdi.

Ey, bolalar! Ko'rdingizmi, yamonning yamonligi o'z boshiga yetdi.

Hissa: Yaxshilik qilgan odam doimo hurmatda bo'ladi. Yaxshi so'z insonga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Yomonlik albatta jazosiz qolmaydi.



1. Abdulla Avloniy qayerda tug'ilgan va qanday kitoblar yozgan?

2. Uning asarlari asosan kimlarga bag'ishlangan?

3. "Ittifoq" va "Yamonliq jazosi" o'gitlaridan qanday xulosa chiqardingiz?



4. Abdulla Avloniy she'rlarini topib o'qing.

5. Xalqimizning buyuk farzandlaridan yana biri to'g'risida ma'lumot to'plang va daftaringizga yozing.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>HAYOT BULOG'I</b>	
Onalik mehri .....	4
Ota jasorati .....	7
Farzand istiqboli .....	10
<b>INSON QADRI</b>	
Umr mazmuni .....	13
Vaqting ketdi — naqding ketdi .....	15
<b>SO'ZLASHUV ODOBI</b>	
Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz .....	17
Yaxshilik ham, yomonlik ham o'zingdan .....	20
Andisha .....	23
<b>YAXSHILARNING ZIYNATI</b>	
Xushmuomalalik .....	28
O'z qadrini bilmagan, o'zga gadrini bilmas .....	30
Kulish madaniyati .....	33
<b>BOLA HUQUQLARI</b>	
“Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya” nima? .....	37
Buni sen bilishing kerak .....	40
<b>KUCH ADOLATDADIR</b>	
Konstititsiya — Asosiy qonunimiz! .....	42
Adolatparvarlik — vijdon amri .....	44
<b>NAFSNI AQL BILAN BOSHQARISH</b>	
Badnafs bo'lma, shukur qil .....	48
Saiomatlik kushandalari .....	50
Zararli xulq va odatlar .....	53

## **O‘ZLIKNI ANGLASH**

Istiqlol bergan buyuk ne‘matlar .....	56
Temuriylar tarixi Davlat muzeyi .....	59

## **FAROVONLIK — HAYOT KO‘RKI**

Yurt tinchligi .....	63
Millatlararo totuvlik .....	66
Oila to‘kisligi .....	68

## **“AVESTO” — G‘URURIMIZ**

Mo‘tabar qadimiy qo‘lyozma .....	73
Da‘vat: ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu ish .....	75

## **MUMTOZ SAN‘AT — FAXRIMIZ**

Bobolarimiz, momolarimiz kuylagan qo‘shiqlar .....	78
San‘atkor — qalb chirog‘i .....	81
Musiqa tinglashni bilasizmi? .....	83

## **BARHAYOT SIYMOLAR**

Abu Rayhon Beruniy .....	86
Abu Ali ibn Sino .....	88
Abdulla Avloniy .....	90

OYSHA HASANBOYEVA  
ADOLAT NE'MATOVA  
GULCHEHRA IBRAGIMOVA

**ODOBNOMA**  
**4-sinf uchun**

Qayta ishlangan beshinchi nashri

Muharrir *Asror Mo'minov*  
Badiiy muharrir *Asomiddin Burhonov*  
Tex. muharrir *Mirziyod Olimov*  
Musahhib *Abduqahhor Dadaboyev*  
Kompyuterda sahifalovchi *Asqar Yoqubjonov*

IB № 514

Bosishga ruxsat etildi 19.01.2006-y. Bichimi 70x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog'ozi. Tayms garniturası.  
Kegli 14. 12 shponli. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 7.02.  
Shartli kr. ott. 24.5. Nashr tabog'i 5.73. Adadi 75525 nusxa.  
06-521-sonli buyurtma.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.  
Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

**Maktab kutubxona jamg'armasiga kiritilgan, bepul.**